

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

"IJTIMOIY IQTISODIYOT" fakulteti

"IQTISODIYOT VA MEHNAT SOSIOLOGIYASI" kafedrası

**Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi daromadlarini oshirish
yo'llari (Samarqand viloyati misolida)**

Valiyev Temur

Magistr darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiyasi

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari nomzodi,
dosent Arabov N.U.**

SAMARQAND - 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB INNOVASION RIVOJLANISH SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARI DARAJASINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	8
1.1. Aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmuni....	8
1.2. Aholi daromadlarining turlari, tarkibi va shakllanish manbalari.....	16
1.3. Aholi turmush darajasining ijtimoiy standartlari va ehtiyojlar tizimi bilan bog‘liqligi	
II-BOB MAMJAKATIMIZDA AHOLI TURMUSH DARAJASI HOLATINING TAHLILI.....	
2.1. Aholi daromadlarining shakllanishi va o‘zgarishining bozor omillari.....	
2.2. Aholining iste’moli tarkibidagi o‘zgarishlar tahlili.....	
III-BOB BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	
3.1. Davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish mexanizmini shakllantirish.....	
3.2. Aholi turmush darajasini davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribasi va undan ijodiy foydalanish imkoniyatlari.....	
3.3. Innovasion rivojlanish sharoitida aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish istiqbollari.....	
XULOSA.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	
ILOVALAR.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir insonning moddiy va ma'naviy turmush imkoniyatlari uning daromadlari darajasiga bog'liq. Insonni daromadi darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash dam olishni tashkil etish, ma'lumot olish va bo'sh vaqtini madaniy tarzda madaniy tarzda o'tkazish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'ladi. Bozor munosabatlarining asosiy tamoyillaridan biri – respublika aholisini kuchli ijtimoiy himoyalash sanaladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi rivojlanish bosqichida ham inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash hayotiy zaruriyatdir. Yangilanish va taraqqiyotdagi O'zbekiston modelining bosh ustuvor yo'nalishi zahirida inson manfaatlari yotadi va kuchli ijtimoiy siyosat yuritish markaziy o'rinni egallaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: “Yangi ish o'rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta'minlash 2013-yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi”¹.

Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, “aholi daromadlari” tushunchasining ta'rifi, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil davlat daromadlar siyosatini o'tkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarda daromadlar muammosi, odatda, uning turli modellarida aholi daromadlari yuzaga kelish nuqtai nazaridan yoki xo'jalikning xilma-xil sharoitlarida daromadlarning taqsimlanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ko'pincha ushbu masala faqat kambag'allik, qashshoqlik, aholini ijtimoiy himoya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi “Xalq so'zi” gazetasi, 2013 yil 19 yanvar, №13 (5687).

qilish bilan o'zaro bog'liqlikda tekshiriladi. Daromad o'lchamlarining miqdoriy va sifatiy o'zgarishi va taqsimlanish tamoyillarining o'zgarishi umuman iqtisodiyot, daromadlar nazariyasi sohasi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi kerak.

Shu bilan birga, bugungi kunda aholining turmush darajasini obyektiv statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil qilish, aholining pul daromadlari va xarajatlarini o'rganish, uy xo'jaliklarining iqtisodiyotda qatnashish darajasi va xarajatlar tasnifini tahlil etish dolzarb masala hisoblanmoqda. Respublikamizda aholini ijtimoiy himoya qilish, ish haqi va boshqa pul daromadlarini bosqichma-bosqich oshib borishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. O'z navbatida, aholi pul daromadlarining o'sishi, uning xarid qobiliyatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham hozirgi innovasion rivojlanish sharoitida aholi turmush darajasiga, daromadlariga, imkoniyatiga, iste'mol va iste'mol talablarining qondirilish darajasini obyektiv talqin etish muammosi dolzarb sanaladi. Bu muammo na nazariy, na uslubiy jihatdan hali yaxshi o'rganilmagan. Shularni hisobga olgan holda ushbu dolzarb mavzuni o'rganishga harakat qildik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aholi turmush tarzi va daromadlari hamda ularning shakllanish darajasining ilmiy asoslari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Smit, L.Valros, V.Pareto, A.Pigu, A.Berson, K.Errou, P.Samuelsonlarning asarlarida tadqiq etilgan. Rossiyada aholi turmush darajasini aniqlashning miqdor va sifat jihatlari, ehtiyojlar tizimi V.M.Jerebin, A.M.Romanov, N.M.Rimashevskaya, V.M.Rutgayzer, V.M.Mayer, N.I.Buzlyakov, V.Raysin, N.A.Volgin, Yu.G.Odegov, I.P.Denisova, L.R.Klinovenkolarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. O'zbekistonda aholi turmush darajasining nazariy va amaliy jihatlari Q.Abdurahmonov, X.Allaqulov, B.Axmedov, A.Vahobov, R.Karimov, K.Saidov, A.O'lmasov, R.Ubaydullayeva, Sh.Shodmonov, R.Xasanov, S.Alibekova, A.Xayitov, B.G'oyibnazarov, N.Shoyusupova, U.Yuldasheva va boshqalar tomonidan tahlil qilingan.

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning asarlarida aholi turmush darajasini shakllantirishning ayrim jihatlarini, daromadlarning shakllanishi, iste'mol tarkibi, aholi ijtimoiy qatlamlari turmush darajasidagi farqlar va ularni kamaytirish muammolari tadqiq etilgan. Ammo, inovasion rivojlanish sharoitida aholi daromadlar darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash, aholi iste'molida bozor mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liq ravishda sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, aholi turmush farovonligini oshirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yaxlit tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu mavzuning tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot maqsadi – Samarqand viloyatida aholi daromadlari darajasini oshirish va ularning shakllanish manbalari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur Magistrlik dissertatsiya ishning **asosiy vazifalari** etib quydagilar belgilandi:

- aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmunini qiyosiy yondashuvlar asosida yoritib berish;
- aholi daromadlarining turlari, tarkibi va shakllanish manbalarini aniqlash;
- aholi turmush darajasining ijtimoiy standartlari va ehtiyojlar tizimini tasniflash va ularning uzaro bog'liqligini aniqlash;
- aholi daromadlarining shakllanishi va o'zgarishining bozor omillarini tasniflash;
- aholining iste'moli tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil etish;
- davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish mexanizmi shakllanish yo'nalishlarini aniqlash;
- aholi turmush darajasini davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribasi va undan ijodiy foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;
- innovasion rivojlanish sharoitida aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti – Samarqand viloyati aholisining turli ijtimoiy guruhlarini.

Tadqiqot predmeti – aholi turmush farovonligining shakllanishi jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari - O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mamlakatimiz va xorijiy olimlarning tadqiqotlari ishning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, Dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Mazkur ishda quyidagi **usullardan** foydalanildi: iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, sotsiologik so'rov, va boshqalar.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari. Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklarini ifodalovchi natijalar quyidagilardan iborat:

- aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmuni qiyosiy yondashuvlar asosida yoritib berildi;
- aholi daromadlarining turlari, tarkibi va shakllanish manbalari aniqlandi;
- aholi turmush darajasining ijtimoiy standartlari va ehtiyojlar tizimi tasniflandi va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlandi;
- aholi daromadlarining shakllanishi va o'zgarishining bozor omillari tasniflandi;
- davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish mexanizmi shakllanish yo'nalishlari aniqlandi;
- aholi turmush darajasini davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribasi va undan ijodiy foydalanish imkoniyatlari tadqiq etildi;
- innovasion rivojlanish sharoitida aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

- aholi daromadlarining turlari, tarkibi va shakllanish manbalari;
- aholi daromadlarining shakllanishi va o'zgarishining bozor omillari;

- davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish mexanizmi;
- innovasion rivojlanish sharoitida aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari mehnat bozori, hududlardagi ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini takomillashtirish, mahalliy hokimiyat, ish beruvchilar vakillik organlari hamda nodavlat tashkilotlar tomonidan aholi daromadlarini oshirish va ularni kafolatli ish bilan ta'minlash bo'yicha ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mehnat bozorining innovatsion rivojlanish bo'yicha maqsadli dasturlarini va ish bilan bandlikni tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadlariga xizmat qiladi. Taklif qilingan nazariy xulosalar, ilmiy, amaliy tavsiyalarni aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda amaliyotga joriy etish mumkin.

Tadqiqot natijalaridan iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi", "Mehnat bozori iqtisodiyoti", "Kadrlar marketingi" fanlarini o'qitishda, shu fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar OOO "SAMARQAND TOXIR INVEST"ning amaliy faoliyatida joriy etish uchun qabul qilingan.

Natijalarni sinovdan o'tkazish. Ushbu dissertatsion tadqiqot mazmuni quyidagi xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarida: "Ta'lim tizimidagi hamkorlik: ustvor yo'nalishlar va dolzarb vazifalar" (Toshkent, 2013), "Хизматлар бозори: муаммо, ечимлар ва истикболлар" (Samarqand, 2012), "Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishi: muammo va yechimlar" (Toshkent, 2013) muhokama qilingan va ma'qullangan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning tahliliy natijalari va asosiy yo'nalishlari 3 ta ilmiy ishlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. **U 103**

sahifada yoritilgan bo'lib, 18 ta jadval, 16 ta rasm, va 5 ta ilovani o'zida mujassamlashtirilgan.

I-BOB. INNOVASION RIVOJLANISH SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARI DARAJASINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aholi daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, "aholi daromadlari" tushunchasining ta'rif, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil davlat daromadlar siyosatini o'tkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarda daromadlar muammosi, odatda, uning turli modellarida aholi daromadlari yuzaga kelish nuqtai nazaridan yoki xo'jalikning xilma-xil sharoitlarida daromadlarning taqsimlanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Ko'pincha ushbu masala faqat kambag'allik, qashshoqlik, aholini ijtimoiy himoya qilish bilan o'zaro bog'liqlikda tekshiriladi. Daromad o'lchamlarining miqdoriy va sifatiy o'zgarishi va taqsimlanish tamoyillarining o'zgarishi umuman iqtisodiyot, daromadlar nazariyasi sohasi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi kerak.

Bunda "daromad" va "boylik" tushunchalarining o'zaro aloqasini qayd qilish muhim. Bizning fikrimizcha, "boylik" tushunchasi kengroq. Daromad jamiyat a'zolarining shu paytdagi pul, boylik va xizmatlar zahiralaridan tarkib topadi va har doim ham iste'mol qilish orqali ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lmaydi. Daromad boylik yuzaga kelishining asosini tashkil qiladi va qandaydir vaqt oralig'i, odatda, bir yil ichida belgilanadi. Daromadlarning o'sishi va boylikning ko'payishi har doim ham o'sha bitta yagona yo'nalishning o'zida o'zgarmaydi. Lekin, aholining daromadlari va boyliklari insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning asosi bo'lib, jamiyat farovonligini oshirishning eng muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlari mohiyatini belgilashga oid turlicha yondoshuvlar mavjud va ularni tadqiq qilish darajasidan kelib chiqqan holda

turlicha talqin qilinadi. Bu yondoshuvlarni umumlashtirib, qayd qilish mumkinki, ularni tadqiq qilish ikki asosiy yo'nalishda o'tkazilgan. Iqtisodiyotda aks etgan birinchi yo'nalish doirasida miqdoriy o'zaro aloqalar ko'rib chiqiladi, ya'ni aholi daromadlari "vaqt birligiga pul tushumlari yoki naqd pul yig'indisi sifatida" belgilanadi. Bu yerda tadqiqotning mohiyati daromadlarning talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi va o'z navbatida, talab va taklifning ishlab chiqarish omillariga o'zaro nisbati bilan belgilanuvchi pul miqdori sifatida qabul qilinadigan miqdoriy xususiyatlarni o'rganishdan iborat.

Aholi daromadlari – bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va iste'mol, jamg'arma, turli yig'in va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuidir. Daromadlarning ushbu ta'rifida, bizningcha, aholi daromadlari tarkibiga kiruvchi bepul xizmatlar hisobga olinmagan.

Yu.P.Kokin ta'kidlashicha, "jami daromad aholining moddiy ta'minlanishining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, pul daromadlarining barcha turlarini, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olingan va shaxsiy iste'molga qo'llanilgan natural tushumlar qiymatini o'z ichiga oladi". Aholi daromadlarini ularning tarkibiga turli xo'jalik subyektlari va davlat tomonidan ko'rsatiladigan bepul xizmatlarni qo'shmasdan ko'rib chiqish tadqiqot doiralarini toraytiradi, chunki aholining past daromadli guruhlarini daromadlarini takror ishlab chiqarishda ularning roli muhimdir.

Demak, daromadlarning shakllanishida xodimlarning shaxsiy xususiyatlari va mehnatdagi yutuqlari, xodim band bo'lgan korxona, tashkilot, muassasaning faoliyat natijalari va umuman iqtisodiyotning rivojlanish darajasi muhim omil hisoblanadi. Aholi daromadlari yangidan yaratilgan qiymat o'lchamlariga, ularning yuzaga kelish manbasi sifatida mehnat unumdorligi darajasiga, davlatning soliq va ijtimoiy siyosatiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida daromadlarning mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning iqtisodiy shakllari sifatidagi muhimligi saqlanib qoladi. Mulchilik munosabatlari xo'jalik tarkibi va boshqaruv tizimidan iborat har

qanday iqtisodiyotning asosidir. Mulkchilik munosabatlarining agentlari bir-biridan ajratilgan transformasiya davri sharoitlarida, almashuvning dastlabki sharti bo'lib boyliklarning iqtisodiy munosabatlar subyektlariga tegishliligi chiqadi. Mulkdor bozor munosabatlariga kirishar ekan, iqtisodiy boylikning qanday qilib va qanday sharoitlarda foydalanish, egalik qilish, idora qilish, boshqarish huquqining obyekti bo'lgan boshqa shaxsga berilishini belgilaydi, mulk shakli esa daromad olish manbalarini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Daromadning mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning iqtisodiy shakli sifatida belgilanishi uning sifat xususiyatlarini ochishga, chuqur ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ko'rsatishga imkon beradi.

Aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat o'rtasida, ikkinchi tomondan, uy xo'jaliklari va individlar o'rtasida yangidan yaratilgan qiymat qismini o'zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlash borasida yuzaga keluvchi umumiy munosabatlarni ko'rsatadi.

Daromadlarning mohiyati ularning vazifalarida to'liq aks etadi. Aholi daromadlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: qayta tiklovchi, maqomiy, rag'batlantiruvchi, to'lov qobiliyatini shakllantiruvchi va farovonlikni oshiruvchi.

Qayta tiklash vazifasi. Bu vazifa aholining takror barpo bo'lish jarayonidagi qator daromadlarning rolini ko'rsatadi. Dastlab aholi daromadlari tarkibida ushbu vazifaning bajarilishidagi asosiy rolni ish haqi o'ynagan, lekin bozorga o'tish sharoitlarida uning aholi daromadlari tarkibidagi ulushi keskin pasaydi va endi ish haqi bilan bir qatorda odamlarning ehtiyojlarini qondirish jarayonida shaxsiy yordamchi xo'jalikdan va tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlarning ulushi ortmoqda, ya'ni aynan daromadlarning barcha turlari aholining mo'tadil turmush darajasini ta'minlashning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Maqomiy vazifasi. Individning jamiyatdagi o'rni va asosiy ehtiyojlarining qondirilish darajasi uning daromadi bilan belgilanadi. P.Samuelson yozishicha, "inson haqida uning daromadiga ko'ra hukm chiqaradilar", ya'ni individ daromadi asosida uning bilimi, yoshi va hatto umrining davom etish muddati haqida

namunaviy tasavvurni tuzish mumkin. O'z daromadlarini jamiyatning boshqa a'zolari daromadlari bilan taqqoslab, inson o'zining jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'rnini belgilaydiki, bu unga boshqalarga nisbatan o'z maqomini yaxshilash uchun asos beradi. Daromadlar odamlarning ijtimoiy ahvollarini nafaqat mamlakat ichida qiyoslashda belgilovchi asosiy ko'rsatkich, balki ular turmush darajasini mamlakatlararo solishtirishda ham qo'llanilishi mumkin.

Rag'batlantiruvchi vazifasi. Ushbu vazifa odamlarning faoliyat jarayonida qobiliyatlarini yaxshilashni rag'batlantirishga qaratilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar iqtisodiy manfaat egalari (xodimlar, sarmoya, yer va aqliy mahsulot mulkdorlari), shuningdek, boshqa sohalarida band bo'lgan insonlar uchun moddiy rag'bat sifatida maydonga chiqadi. Odamlar ko'nikmalarining sifat o'zgarishlari faoliyatning istalgan turida daromadlarning ko'payishiga olib keladi va shunga yarasha ularning turmush darajasini oshiradi. Shuning uchun daromad olish mehnatning oxirgi natijalari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va insonlarni o'z daromadlarini oshirishda asos bilan ta'minlashi kerak.

Farovonlikni oshirish vazifasi. Aholi daromadlari insonlarning eng muhim ehtiyojlarini qondirish asosi bo'lib, bu ehtiyojlar oqibat natijada jamiyat farovonligi darajasini belgilaydi. Farovonlik iqtisodiy kategoriya sifatida aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan belgilanadi va jamiyat a'zolari daromadlariga bog'liq bo'ladi hamda ular alohida individda qanchalik yuqori bo'lsa, uning farovonligi shunchalik yuqori bo'ladi. Daromadlar nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun qo'llaniladi, balki ular inson hayotiy faoliyatining sifat xususiyatlarini yaxshilash asosidir, ya'ni bilim darajasini oshirish uchun, sog'liqni yaxshilash uchun, dam olish vaqti, jamiyatdagi ekologik vaziyat sifatini oshirish uchun qo'llaniladi. Shunday ekan, daromadlar aholi farovonligini oshirish va ularning moddiy xususiyatlarining muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Daromadning mohiyati uning shakli vositasida pul to'lovlari, natural vositalar, ko'chmas mulk, muayyan vaqt oralig'ida aholiga bepul xizmat ko'rsatish majmuidan iborat bo'lib, ular iste'mol va jamg'armalarga qo'llaniladi. Pul va

natural tushumlar mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha solishtirma og'irlikka ega bo'lgan shakldagi daromadlardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

- ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi.

- uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasini, qimmatli qog'ozlarni, shaxsiy mulkni sotib olishga xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar.

Shu bilan birga, aholi daromadlarining tarkibi ham jiddiy o'zgardi. Mulkchilik munosabatlarning tubdan o'zgarishi, xo'jalik yuritish va mehnat bozori hamda sarmoya yangi shakllarining yuzaga kelishi aholi daromadlari tarkibiga tegishli o'zgarishlarni olib kirdi. Aholi daromadlari tarkibida uning quyidagi shakllari ajraladi: mehnatga haq to'lash va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, shaxsiy yordamchi xo'jalik, pensiya, moddiy yordam va stipendiyadan keladigan daromad, dividend va aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar hamda chet el valyutasi savdosidan tushumlar, kreditlar, ssudalar, sug'urtalardan tushumlar, shuningdek, boshqa tushumlar.

Aholi daromadlarini batafsil tahlil qilish uchun ularning mavjud turlarini to'liqroq baholash maqsadida ma'lum belgilar bo'yicha ularni tasniflash lozim. (1.1-jadval).

Aholi daromadlarining tasnifi

Belgilar		Daromad turlari
1.	Ifodalanish shakliga ko'ra	Pullik; natural
2.	Olinish xususiyati	Mehnat daromadlari; mehnatga oid bo'lmagan daromadlar
3.	Olinishining qonuniyligi	Qonuniy daromadlar; noqonuniy daromadlar
4.	Haqiqiylik darajasi	Nominal daromad; real daromad
5.	Olinish ehtimoli	Permanent; vaqtinchalik
6.	Mulkchilik shakli	Ish haqi, renta, foiz va foyda
7.	Mobillik darajasi	Mobil; immobil
8.	Tushumning doimiyligi	Doimiy; tasodifiy
9.	O'zlashtirish subyektlari	Jismoniy shaxslar; uy xo'jaliklari
10.	Taqsimot tamoyili bo'yicha	Mehnatning miqdori, sifati va natijalariga ko'ra; ijtimoiy adolat tamoyiliga ko'ra; shaxsan ijrochi tomonidan o'zlashtirish
11.	Foydalanish varianti	Turli boylik va xizmatlar iste'moliga sarflanadigan daromad; to'plashga sarflanadigan daromad
12.	Soliqqa tortish ta'siriga bog'liq ravishda	Umumiy daromadlar; o'z tasarrufidagi daromadlar

Aholining pul daromadlari – bu ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlari, mulkdan foiz, dividend, renta, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlardir.

Natural daromadlar – bu asosan uy xo'jaliklari tomonidan shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (shaxsiy yordamchi xo'jalik, fermer xo'jaligidan), shuningdek, davlat byudjeti, korxonalar fondi va turli xayriya yordami mablag'lari hisobiga olinadigan natural tushumlar va bepul xizmatlardir.

Olinish xususiyatiga bog'liq ravishda aholi daromadlari quyidagilarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish va tadbirkorlikdagi faoliyat asos bo'luvchi mehnat daromadlari. Mehnat daromadlariga shaxsiy yordamchi xo'jalik va uy xo'jaligi, xususiy mehnat faoliyatidan keladigan daromadlar ham xos;

- mehnatga oid bo'lmagan, lekin qonuniy yo'l bilan olingan daromadlar (mulkdan, ijtimoiy transfertdan daromadlar).

Shu bilan birga, hozirgi iqtisodiy sharoitda qonun nuqtai nazaridan daromatlarni qonuniy va noqonuniylarga ajratish to'g'ri bo'ladi. Agar, birinchisini mavjud me'yorlarga to'la muvofiqlikda olinsa, ikkinchisi, uy xo'jaliklari tomonidan mamlakatdagi amal qilayotgan qonunlarni buzish yo'li bilan ko'proq salbiy va jinoiy iqtisodiyot sohasida olinadi. Ehtimollik mezoniga ko'ra, daromadlar olish uzluksiz va vaqtinchalikka bo'linadi.

Permanent (doimiy) daromadni iqtisodchi olim M.Fridmen iste'molchi yetarlicha uzoq muddat davomida olishni umid qilgan daromad sifatida belgilaydi. Uning qiymati individning iste'mol doirasiga, to'plangan sarmoya qiymatiga, shuningdek, yashash joyi, yoshi, kasbi, ma'lumoti, irqi va millatiga bog'liq bo'ladi.

Iste'mol doirasi – bu eng kam vaqt oralig'i davomida daromad o'zgarmas darajada qoladi va iste'molchi tomonidan permanent sifatida baholanadi.

Vaqtinchalik yoki tasodifiy daromad inson tasodifiyga kirituvchi barcha omillar ta'sirini aks ettiradi, ya'ni ular, masalan, ishdagi faollikning davriy o'zgarishlari kabi kuchlar harakatining prognoz qilinuvchi natijalari bo'lishi mumkin.

Daromadlarning umumiy va ishlatilayotgan daromadlarga bo'linishi muhim ko'rinadi. Umumiy daromadlar aholining jami mobil daromadlari bruttosini, ulardan tegishli soliqlar va majburiy to'lovlar to'lanishiga qadar tavsiflaydi.

Qolgan qism (aholining tasarrufdagi shaxsiy daromadlari) mobil daromadlar – mablag'larning eng yuqori bo'lishi mumkin shunday miqdorini tavsiflaydiki, ular jamg'armalardan foydalanmagan holda tovar va xizmatlarning oxirgi iste'moli miqdorlarini belgilaydi.

Daromadlarning yana bir guruhi – bu omonatlardan olinadigan daromadlar bo'lib, unga dividendlar, turli moliyaviy muassasalarga qo'yilgan omonatlar bo'yicha foizlar, mulkdan, shu jumladan, ijaraga berilgan uy-joydan daromadlar va boshqa tarkibiy qismlar kiradi.

Aholi daromadlari qiymatiga daromadlarni shakllantirish va boshqarish borasida tizim ichidagi munosabatlardan tashqari demografik, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalarda yuzaga keluvchi ekzogen munosabatlar ham ta'sir qiladi.

Ishlab chiqarishda yaratilgan daromadlarni taqsimlash borasidagi munosabatlar daromadlarni boshqarishning bozor mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish omilining har bir egasi firma faoliyatining oxirgi natijalari hissasiga muvofiq keluvchi yangi qiymat qismiga huquq oladi. Taqsimlash chog'ida omiliy daromadlarning ish haqi, foyda, renta va tadbirkorlik daromadi kabi shakllari hosil bo'ladi. Daromadlarning taqsimlanishida davlat muhim rol o'ynaydi, u fiskal siyosat yordamida davlat byudjetidagi pul mablag'larini akkmulyasiyalaydi. Davlatning bu daromadlari byudjet sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun, ijtimoiy transfertlar va aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish to'lovlari uchun qo'llanadi.

Aholi daromadlarini baholashda foydalanilgan paradigma tizimi quyidagilarga imkon beradi:

- daromadlar tarkibini aniqlashga – yangi qiymat qismini o'zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlash borasida asosiy subyektlarning o'zaro, birgalikdagi harakati sifatida;

- boshqarish mexanizmini belgilashga – mulkchilik munosabatlariga asoslangan va aholi daromadlarini tartibga solishning firma ichidagi, davlat va bozor mexanizmlarini ko'rsatuvchi asosiy bo'g'inlaridan foydalanish natijasi sifatida.

1.2. Aholi daromadlarining turlari, tarkibi va shakllanish manbalari

Aholi daromadlari, ularning tarkibi, olinish manbalari va tabaqalanish darajasi jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy farovonligining eng muhim ko'rsatkichidir. Madomiki, daromadlar insonning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qilar ekan, aynan daromad kengroq tushuncha bo'lib, aholi turmush darajasining markaziy bo'g'ini, yadrosidir. Daromad deganda nimani tushunish, ularning turlari va asosiy olinish manbalari qandayligini bilish muhimdir.

“Daromad” tushunchasi juda murakkab iqtisodiy kategoriyani ko'rsatadi. Bu o'rinda gap aholining shaxsiy daromadlari haqida ketadi. Dastlabkisi sifatida aholi shaxsiy daromadlarining quyidagi ta'riflarini keltirish mumkin.

Shaxsiy daromadlar – bu inson tomonidan pul va natural shaklda olinadigan, ular tomonidan turmushning muayyan darajasini ta'minlash uchun foydalaniladigan mablag'lar majmuidir.

Agar “shaxsiy daromadlar” ta'rifida biz ularning shakllanish manbalarini ta'kidlasak, unda u quyidagi tarzda namoyon bo'ladi. Shaxsiy daromadlar – fuqarolarning mehnat faoliyatida ishtiroki, ishlab chiqarish va boshqa boyliklarning istalgan turiga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, ushbu davlatning qonuniy hujjatlariga muvofiq ijtimoiy transfertlar to'lovi qo'yilgan ijtimoiy guruhlariga tegishlilik bilan bog'liq barcha pul va tabiiy tushumlar yig'indisidir.


Iqtisodchilar shaxsiy daromad manbalarini turlicha talqin qiladi, biroq umumiy xulosa shuki, har bir ishlab chiqarish omili shaxsiy daromadlarning muayyan turi bilan bog'liq.

Omilar nazariyasiga muvofiq daromad turlari. Omilar nazariyasiga muvofiq asosiy ishlab chiqarish omillari quyidagilardir:

- tabiiy boyliklar (yer va tabiiy boyliklar);
- investisiya boyliklari;

- mehnat;
- tadbirkorlik faoliyati.

Har bir sanab o'tilgan omillarga daromad – renta, foyda, ish haqi, tadbirkorlik daromadining boshlang'ich shaklini oladi (1.2-rasm).



1.2- rasm. Omillar nazariyasiga muvofiq shaxsiy daromadlarning shakllanish chizmasi

Shu bilan birga, har bir omilga daromad, nazariyaga muvofiq, korxona tomonidan mahsulot sotilgandan keyin olingan daromadga bu omilning qo'shgan oxirgi hissasiga tengdir. Faqat oxirgi ishlab chiqarish nazariyasidan kelib chiqqan holda, amalda daromadlarning bunday taqsimlanishi haqiqatan bo'lishi mumkin emas, chunki:

- bozordagi takomillashmagan raqobat tufayli olinadigan daromad miqdori ishga solingan omilning mahsulot chiqarishga qo'shgan ulushini ko'pincha aks ettirmaydi;
- boyliklarni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlashda har doim tengsizlik va adolatsizlik mavjud bo'ladi, bu shaxsiy daromadlarni oxirgi unumdorlik

nazariyasiga qat'iy muvofiqlikda taqsimlashda yo'l qo'yib bo'lmas keskin qarama-qarshiliklarga olib keladi;

- har qanday taraqqiy topgan jamiyatda daromadlarni shakllantiruvchi ishlab chiqarish omillari egalarining soni jamiyat a'zolari sonidan kamroq bo'ladi.

Dastlabki boyliklarni taqsimlashdagi bunday tengsizliklar jamiyat qonunlari va ustuvorliklariga muvofiq daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini ishga solishni talab qiladiki, bu ulardan jamiyat umumiy daromadini ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydiganlarning omon qolishiga imkon beradi.

Birlamchi va ikkilamchi daromadlar. Daromadlarning ishlab chiqarish omillari o'rtasida taqsimlanishi funksional taqsimlash xususiyatiga ega va bunda hosil bo'ladigan daromadlar (renta, foyda, ish haqi, tadbirkorlik daromadi) birlamchi daromad deb ataladi. Bu daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini ishga solish natijasida ikkilamchi daromadlar yuzaga keladi va shu bilan birga, daromadlarning yangi turi – ijtimoiy transfertlar (pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, stipendiya) paydo bo'ladi.

Renta iqtisodiy kategoriya sifatida taklifi hatto uzoq muddatli istiqbolda qat'iy cheklangan xususiyatga ega tabiiy boyliklardan chiqarib olinadigan daromadni bildiradi. Bunday boyliklar alohida muhimligi, cheklanganligi, sifati va takror ishlab chiqarilmasligi sababli birinchi navbatda yer boyliklaridir.

Renta – miqdori chegaralangan yer va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish uchun to'lanadigan narhdir. Aksariyat hollarda renta ijara to'lovi shaklida chiqadi. Renta:

- egasi tomonidan yer, mulk, sarmoyadan foydalanishdan olinadigan, egasidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni, qo'shimcha kuchlar sarflashni talab qilmaydigan daromaddir. Bunday daromad, masalan, yerni yoki inshootni ijaraga berish, kredit taqdim qilishdan olinishi mumkin.

- sug'urtalangan shaxsga sug'urta jamiyati tomonidan sug'urta polisi bo'yicha har yili to'lanadigan pul miqdoridir.

Bu boyliklarni taklif qilishning qayd qilingan xususiyati talab renta hosil qiluvchi yagona omil ekanligini bildiradi. Biroq, tabiiy boyliklardan foydalanish

uchun narxning shakllanishi va ularning daromadi har qanday davrda davlat daromad siyosatining elementidir.

Jamiyat uchun tabiiy boyliklar tekin hadya, lekin foydalanuvchilar uchun renta to'lovlari xarajatlardan iborat. Alohida korxonalar uchun yerlar foydalanishning alternativ usullariga ega (qishloq xo'jaligi uchun, binolar va inshootlar qurilishi), bu ko'p jihatdan korxona tomonidan olinadigan daromadning qiymatini belgilaydi.

Shuni qayd qilish kerakki, kundalik turmushda “renta” atamasi ko'pincha kengroq talqinda qo'llaniladi. Masalan, shunday ta'rifni uchratish mumkin: “Renta – yer, mulk, sarmoyadan olinadigan, mulkdorning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan nisbatan barqaror daromaddir”. Biroq, bu ta'rifda ishlab chiqarishning ikkita muhim omili – yer va sarmoyadan olinuvchi daromadlar birlashtirilgan.

Kapitaldan daromad. Kapital (lot. Capitalis – asosiy, ya'ni asosiy mulk, asosiy miqdor) – iqtisodiyot fanining eng murakkab va muhim kategoriyalaridan biri, bozor iqtisodiyotining asosiy elementidir. Kapital yoki ishlab chiqarish vositalarining majmui (“ashyoviy” konsepsiya) sifatida yoki daromad olish maqsadlarida xo'jalik faoliyatida foydalaniluvchi pul miqdori sifatida tavsiflanadi. Tovar ishlab chiqarish davridan beri kapital mavjudligining tarixiy shakllari savdo kapitali, sudxo'rlik kapitali va nihoyat, sanoat kapitali bo'lgan.

Kapitalni ishga solish shakli va sohasiga bog'liq ravishda ular tomonidan keltiriladigan daromadning quyidagi turlarini farqlash kerak. Korporativ (portfel) shaklidagi ashyoviy kapital korporativ foyda ko'rinishidagi daromadni keltiradi, nokorporativ shaklidagi – mulkka daromad ko'rinishidagi daromadni, pul kapitali esa ssuda foizi ko'rinishidagi daromadni keltiradi.

Foiz me'yorini belgilashda nominal va real, inflyasiyadan tozalangan me'yor o'rtasidagi tafovutni hisobga olish kerak. Yuzaga kelgan foiz me'yorlari mavjud naqd pul kapitalini uning eng ko'p unumdorligi va foydaliligi yo'nalishida tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlaydi.

Aholining mulkdan keladigan daromatlari o'z ichiga:

- aksiyalar bo'yicha daromadlar, xodimlarning korxona, muassasa, tashkilot mulkida ishtirokidan ulush paylari bo'yicha foizlar, to'lovlarni;
- omonatlar bo'yicha bank-kredit tashkilotlari omonatchilariga berilishi lozim bo'lgan foizlarni (bir yil davomida to'lanadigan va yil oxirida omonat qoldig'iga o'tkazilgan);
- davlat va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha kredit tashkilotlari tomonidan daromadlar to'lovini;
- fuqarolar omonatlari bo'yicha dastlabki badalni;
- aholining uy-joy ikkilamchi bozorida ko'chmas mulk sotishdan keladigan daromdlarni oladi.

Xodimlarni kapitalda ishtirok etishga jalb qilishning aniq mexanizmi AQShda 1970-yillar o'rtalarida paydo bo'ldi. U ISOP nomi bilan (employee stock ownership plan, ESOP) – yollanma xodimlarning hissadorlik mulkini rivojlantirish dasturi bilan mashhur.

Xodimning kapitalda ishtirok etishining mamlakat tajribasi – davlat mulkini xususiyashtirish natijasida yuzaga kelgan nisbatan yangi yo'nalishdir. Unga muvofiq ko'pchilik mehnat jamoalari 51 %dan ortiqroq aksiyalarni mehnat jamoalariga berishni ko'zda tutgan xususiyashtirish variantini tanladi. Bu bilan nazariy jihatdan korxona xodimlarining hissadorlik mulkiga asos qo'yildi.

Davlat korxonalarining hissadorlik jamiyatlariga o'zgarishi natijasida foyda va kapitalda ishtirok etishning oddiy yoki imtiyozli aksiyalarga egalik qilish bilan bog'liq har xil shakllari yuzaga keldi. Bu imtiyozli hissadorlik jamiyatlari bo'yicha dividendning oldindan o'rnatilgan miqdorini olish, shuningdek, oddiy aksiyalar egalari uchun jamiyat tugatilgan taqdirda, dividendlar olish va mulk olish huquqidir.

Xodimlarning foydadagi ishtiroki shuni ko'zda tutadiki, yollovchi o'zgarmasligi lozim bo'lgan, oldindan kelishilgan soha bo'yicha foydaning ma'lum ulushini to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Xodimlarning foydadagi ishtiroki ulushini belgilash usullari turli-tuman bo'lib, ular quyidagicha:

1. Ish haqiga asoslangan:

$$d_i = \frac{3_i}{\sum_{i=1}^n 3_i} \times \Pi, \quad (1.1);$$

Bu yerda: d_i – xodimning kompaniya foydasidagi ishtirok etish ulushi

3_i – xodimning yillik ish haqi;

$\sum_{i=1}^n 3_i$ - kompaniya barcha xodimlarining yillik ish haqi;

Π – kompaniyaning xodimlar o'rtasida taqsimlanuvchi foydasi;

n – kompaniyaning foydada ishtirok etuvchi xodimlari soni.

2. Ish haqi va ish stajiga asoslangan:

$$d_i = \frac{B_{3\pi i} + B_{cu}}{\sum_{i=1}^n (B_{3\pi i} + B_{ci})}, \quad (1.2);$$

Bu yerda: d_i – xodimning kompaniya foydasidagi ishtiroki ulushi;

$B_{3\pi i}$ – xodim ish haqining ma'lum miqdori uchun shartli ballar miqdori;

B_{si} – xodim stajining har bir yili uchun shartli ballar miqdori;

$\sum_{i=1}^n (B_{3\pi i} + B_{ci})$ - barcha ishtirokchilar ish haqlari va ish staji uchun shartli ballar miqdori.

3. Kiritilgan sarmoya miqdoriga asoslangan:

$$d_i = \frac{K_i}{\sum_{i=1}^n K_i} \times \Pi, \quad (1.3);$$

Bu yerda: d_i - xodimning kompaniya foydasidagi ishtirok ulushi;

K_i – kompaniya xodimi tomonidan qo'yilgan sarmoya miqdori;

$\sum_{i=1}^n K_i$ - barcha xodimlar tomonidan qo'yilgan sarmoyaning jami miqdori.

Xodimlarning foydadagi ulushini belgilashning yuqorida keltirilgan usullaridan tashqari ish haqi va mehnat unumdorligi, barcha ishtirokchilarga to'langan soatlarning umumiy miqdorini hisobga olgan holda to'langan ish soatlari ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi.

Tadbirkorlik daromadi. Tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish uchun ishlab chiqarishning barcha omillari birlashtiriladi. Tadbirkor

foйда olish va jamiyatning xilma-xil ehiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishning barcha omillarini muvofiqlashtiradi. Tadbirkorlik faoliyati har doim ma'lum darajadagi xavf bilan bog'liq, bu tadbirkor tomonidan olinuvchi daromadning ajralmas xususiyatidir. Bu daromad belgilangan qiymat bo'lmay, balki tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatiga bog'liqdir.

Tadbirkorlik daromadi tadbirkor ixtiyorida kredit uchun foiz to'lovidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir. Bozor iqtisodiyotida tadbirkor daromadi ikki qismga bo'linadi: mo'tadil va iqtisodiy foyda. Mo'tadil foyda – tadbirkorni ushbu turdagi faoliyat doirasiga jalb qilish va ushlab turish uchun zarur bo'lgan mukofotdir. Mo'tadil foydani tadbirkorning shartli-kafolatlangan daromadi va uni firmaning ichki xarajatlari deb hisoblash mumkin. Iqtisodiy foyda – bu mo'tadil foyda ustiga olingan daromaddir. Aynan u tadbirkorlik faoliyatining noaniqligi va xavfi uchun to'lanadigan haqdir. Tadbirkorlik daromadining umumiy qiymati iqtisodiy foyda hisobiga tebranadi.

Tadbirkorlik daromadi tadbirkorlik qobiliyati va uddaburonligiga bog'liq. Bu daromad tadbirkor tomonidan quyidagi vazifalar bajarilganligi uchun uning mukofotidir: sarmoya, mehnat va tabiiy boyliklarning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning bir butun jarayoniga birlashtirilishi; u tomondan firmaning boshqarilishi bo'yicha qarorlar qabul qilinishi; yangi mahsulotlar, texnologiyalarning kiritilishi; qo'yilgan boyliklarga tegishli xavf.

Tadbirkorlik daromadi kattaligi, olish usuli, foydalanish yo'nalishlari bo'yicha xilma-xildir. Masalan, sarmoya mulkdori bir paytning o'zida tadbirkor rolida ham chiqsa, tadbirkorlik daromadi yalpi foydadan byudjetga ssuda foizi, soliq va boshqa to'lovlar ushlab qolingandan so'nggi qoldiq sifatida hosil bo'ladi. Agar sarmoya mulkdori va tadbirkor – har xil shaxslar bo'lsa, quyidagi variantlar bo'lishi mumkin:

- mulkdor firmani boshqarish vazifasini ushbu firmaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun javobgar bo'lgan menejerlarga beradi. Bu holda tadbirkor daromadi sarmoya mulkining monopoliyasi uchun haq sifatida chiqadi.

– sarmoya mulkdori sarmoyani ma'lum foiz ostida o'z ishini tashkil qilish uchun tadbirkorga beradi. Ushbu holda tadbirkorlik daromadi ishlab chiqarishning faoliyat yuritishida tashabbus ko'rsatish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, yangi mahsulot ishlab chiqarish, firmani boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish va xavfga javobgarlik uchun mukofot ko'rinishida chiqadi.

Tadbirkorlik daromadining shakllanishiga sezilarli darajada xavf ta'sir ko'rsatadi, chunki har qanday tadbirkorlikning amalga oshirilishi uning har qanday ko'rinishida xavf bilan bog'liq. Xavf – bu zararlar va bashorat, reja, loyiha, dasturdagiga qaraganda daromadlarni kamroq olish ehtimolidir. Tadbirkorlik xavfini tug'diruvchi eng muhim omillarga siyosiy beqarorlik, tabiiy ofatlar, o'g'irliklar, reket, usullarning takomillashmagani va biznes-rejani shakllantiruvchi shaxslar ma'lumotining kamligi, sheriklarning insofsizligi yoki nochorligi kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatida xavfni kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Xavfni kamaytirishning quyidagi asosiy usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- loyihani ishlab chiqishga bilimdon sheriklar va maslahatchilarni jalb qilish;
- muammolarni loyihadan oldin chuqur ishlab chiqish;
- bozor konyunkturasining, ushbu mahsulot yoki xizmatga talabning rivojlanish yo'nalishlarini bashorat qilish;
- xavfning loyiha ishtirokchilari, uning ijrochilari o'rtasida taqsimlanishi (xavfning taqsimlanishi shundan iboratki, xavf uchun javobgar xavflarni boshqalardan yaxshiroq hisoblay oladigan va nazorat qila oladigan sherik bo'lishi kerak);
- sug'urta;
- ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplashga mablag'larni zahiralash.

Shuningdek, o'z-o'zini sug'urtalash, opsiolar chiqarishdan foydalanib, boshqaruv sohasidagi malakali ishlar bilan xavfni ancha kamaytirish mumkin.

Tadbirkor maxsus zahira fondi hosil bo'lishi bilan bog'liq o'z-o'zini saqlash choralaridan foydalanib va zararlarini o'z aylanma moliyaviy mablag'larining bir qismi hisobiga qoplab, o'z yo'qotishlarini kamaytirishi mumkin. O'z-o'zini

saqlash choralari, sug'urtalanuvchi mulk qiymati butun biznesning mulkiy va moliyaviy parametrlariga qaraganda uncha katta bo'lmaganda mantiqqa egadir. O'z-o'zini saqlash choralari, shuningdek, zararlar ehtimoli nihoyatda kichik bo'lganda, firma bir tipdagi mulkning katta miqdoriga ega bo'lganda ahamiyatlidir. Masalan, bir necha yuz tankerlarga egalik qiluvchi transmilliy neft kompaniyalari o'z-o'zini saqlash choralarini amalda sinamoqdalar. Hisob-kitob juda oddiy va mantiqan to'g'ri: bir yilda bitta tankerni yo'qotish kompaniyaga barcha tankerlarga sug'urta badallarini to'lashga qaraganda arzonroq tushadi.

Opsionlar – bu egasiga belgilangan muddatda (odatda 3-6 oy) qimmatli qog'ozlar yoki tovarlarning ma'lum miqdorini qayd qilingan narxda sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi qog'ozlardir. Opsionlar chiqarib, korxona daromadlarning kamayishidan ushbu korxona qimmatli qog'ozlariga yoki uning mahsulotiga kursning tushishi hisobiga qo'shimcha kirim oladi. Moliyaviy fyucherslar opsionlardan shu bilan farq qiladiki, ular sotib olish va sotishni o'tkazishga huquqni emas, balki majburiyatni ko'zda tutadi. Korxonalar o'z fyucherslaridan o'z balanslarini tartibga solish uchun foydalanishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar fuqarolarning yuridik shaxs ma'lumotisiz amalga oshiriluvchi tijoratchilik faoliyatidan (xususiy uyushmagan savdo, kasanachilik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi, xususiy xizmat ko'rsatish) keladigan daromadlarni ham o'z ichiga oladi.

Tashkilotning dividend siyosati. Dividend siyosatining mohiyati va uning turlarining mohiyatini anglash uchun dastlab “dividend” tushunchasini u bajaruvchi vazifalar orqali bilish lozim. “Divident” biz uchun yangi tushuncha deb bo'lmaydi, negaki oldingi vaqtlarda xodimlarni moliyaviy hisobot yili tugagandan so'ng “o'n uchinchi maosh” bilan taqdirlash tajribasi mavjud edi. Lekin, bu faqat shartli qiyoslash, chunki “o'n uchinchi maosh” rag'batlantirish usuli sifatida faqat ushbu korxonaning xodimlariga, dividendlar esa – aksiyalarning barcha egalariga to'lanardi. “O'n uchinchi maosh” – bu ko'proq imtiyozli aksiyalarga o'xshagan narsa hisoblanadi.

Rasmiy hujjatlarda dividendlar hissadorlar o'rtasida taqsimlashga mo'ljallangan foydaning bir qismi sifatidagina talqin qilinadi, ya'ni bu qimmatli qog'ozlar egalarining daromadidir. Shu bilan birga, daromad ikki tarkibiy qismdan: dividend to'lovlaridan va aksiyalarning kurs qiymatlarining o'sishidan hosil bo'ladi. Ularning o'rtasidagi farq shundaki, ulardan bittasi – haqiqiy, boshqasi esa yashirin (nisbiy-ehtimoliy) mavjud bo'ladi. Aksiyalarning kurs qiymati o'sishini ma'lum darajada hissadorlar daromadlari to'lovlarini xavfning muayyan ulushi bilan kechiktirish usuli sifatida ham baholash mumkin.

Shunday qilib, dividendning birinchi vazifasi daromaddir. Undan tashqari, dividend – o'zida investor uchun axborot tashuvchi hissadorlik jamiyati rivojlanishining tahliliy indikatoridir (dividendning ikkinchi vazifasi). Dividendning uchinchi vazifasi – bu hissadorlik jamiyatini boshqarish instrumentidir. Dividendning to'rtinchi vazifasi: hissadorlik sarmoyasining bir ulushiga aylanishi mumkinki, bu sarmoya o'z navbatida yangi dividendlar, yangi sarmoyalar olishga imkon beradi. Lekin, bu agar dividendlar qimmatli qog'ozlar ko'rinishida to'lansagina bo'lishi mumkin. Dividendning beshinchi vazifasi hissadorlik jamiyatlar faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoit yaratish mezon, sifat ko'rsatkichidir; hissadorlik jamiyati sarmoyasining barcha qolgan qismlarini yagona tarkibga bog'laydi, unga ma'no bag'ishlaydi va hissadorlik jamiyati sarmoyasi tarkibi uchun maqbul sharoit yaratishga imkon beradi.

O'zbekistonda hissadorlik jamiyatlari mavjud bo'lish davri uncha katta emas, shuning uchun yuzaga kelgan dividend siyosati haqida so'zlashga erta. Biroq, korxona oldida “to'plash yoki iste'mol qilish” alternativlari paydo bo'lishining o'zi u yoki bu qaror qabul qilishning barcha omillarini va oqibatlarini bilish va hisobga olishni talab qiladi. Umuman olganda, dividend siyosati ostida investor-hissadorlarning ham, firma-emitentlarning ham manfaatlarini hisobga olishning shartligini ko'zda tutadi. Bu manfaatlar bir-biridan nafaqat farq qilishi, balki bir-biriga bevosita qarama-qarshi bo'lishi ham mumkinligi tushunarli. Shunisi aniqki, dividend siyosati instrumentlarini shakllantirish chog'ida hissadorlik jamiyatining maqsadi qimmatli qog'ozlar (aksiyalar) alohida

nashrlarini muvaffaqiyatli joylashtirish, emissiya daromadi va imkoniyatga qarab dividendlar to'lovi uchun mo'ljallangan hissadorlik jamiyati mablag'larini rivojlantirishga ko'proq yo'nalish olishdir.

Bugun dividend siyosatiga yondoshuvlar bo'yicha hissadorlik jamiyatining bir-biridan farq qiluvchi ikki guruhni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu yondoshuvlar ham ikkita: dividendlarni to'lash kerakmi yoki yo'qmi, agar to'lash kerak bo'lsa, unda qancha to'lash kerak? Birinchi guruh – bu o'z iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha zarar keltiradigan, deb hisoblanuvchi va o'z hissadorlariga qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarni to'lamaslikni afzal ko'ruvchi yoki daromadlari bor, lekin ularni ishlab chiqarish maqsadlariga sarf qiluvchi korxonalardir. Ikkinchi guruh – o'z moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar dividendlarni to'lashga intiluvchi korxonalardir. Shu bilan birga, korxona rahbariyatini foydaning bir qismini dividendlar to'loviga ajratishga majbur qiluvchi sabablar quyidagilardir: 1) korxona xodimlari tarkibini, uning malakali qismini saqlab qolishga intilish; 2) aksiyalarning nazorat paketini ushbu korxona xodimlari qo'lida saqlashga intilish; 3) hissadorlar, kuchli investorlar, kreditorlar, qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisleri ko'z o'ngida korxonaning ma'lum imidjini yaratishga intilish.

Dividendlar imtiyozli aksiyalar bo'yicha oldindan qayd qilingan foizga ko'ra yoki oddiy aksiyalar bo'yicha hissadorlik jamiyati hisobot yilidagi xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liq bo'lgan suzuvchi foizga ko'ra to'lanadi. Odatda, dividend to'lovi bo'yicha ishlarni hisob-kitob bo'limi amalga oshiradi, ya'ni u sof hisob-kitob operasialari xususiyatiga ega. Bir maromda va to'g'ri ish olib boruvchi firmalarda dividend siyosatini yuzaga keltirishga fond bo'limi xodimlari, moliyachilar, konsalting (maslahat) firmalari jalb qilinadi. Dividendlar to'lovi boshlangunga qadar ular tashqi muhitning avvalgi kompaniyaga dividendlar to'lovi bo'yicha qisqa va uzoq muddatli tahlillarini amalga oshiradi va bu bilan bugungi dividend to'lovini yuzaga keltiradi. Buning uchun ular quyidagilarni bilishlari zarur: 1) avvalgi dividend to'lovlari hissadorlar va hissadorlik jamiyatining o'zining manfaatlariga amal qilinishiga qay darajada yordam berdi; 2) yetakchi tahliliy agentliklarda hissadorlik jamiyati reytingi o'zgardimi yoki yo'qmi; 3)

qimmatli qog'ozlar bozori o'tkazilgan kompaniyaga qanday javob berdi; 4) bajarilgan to'lovlar natijasida yangi yirik va o'rtacha investorlar paydo bo'ldimi; 5) hissadorlik jamiyati dividend siyosati haqida ommaviy axborot vositalarida qanday munosabatlar bildirildi.

Hissadorlik jamiyati foydalangan to'lovlar usuli alohida tahlilga tortiladi. Dividend yilda bir marta yoki har yili to'lab boriladi. Oraliq dividend hissadorlik jamiyati direktorlar kengashi tomonidan e'lon qilinadi va qayd qilingan qiymatga ega bo'ladi. Bitta oddiy aksiyaga oxirgi dividend miqdori hissadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan oraliq dividendni hisobga olgan holda tugagan yil natijalari bo'yicha tasdiqlanadi. Imtiyozli aksiyalar va hissadorlik jamiyati obligasiya foizlari bo'yicha qayd qilingan daromad ularni chiqarishda oldindan aytib qo'yiladi.

Dividendlar to'lovidagi qabul qilingan ish tartibida bir nechta izchil bosqichlar ajratib ko'rsatiladi. Avvalo e'lon kuni – hissadorlik jamiyati rahbariyati dividend to'lovi, uning miqdori, ro'yxatga olish sanasi va to'lov muddati haqida e'lon qiladigan kun mavjud. Shuningdek, odatda aniq eks-dividend sanasi ko'rsatiladi, bu sana dividendlarga kimning huquqi borligini aniqlash uchun belgilanadi: aksiyalarni eks-dividend sanasigacha sotib olgan shaxslar tugagan yil uchun daromad olish huquqiga ega bo'ladi; aksiyalarni o'sha kuni va undan kechroq sotib olgan shaxslar bunday huquqqa ega emas. Bu sananing belgilanishi aksiyaning bozor narxi o'zgarishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ro'yxatga olish sanasi – tugagan davr uchun daromad olish huquqiga ega bo'lgan hissadorlarni ro'yxatga olish kunidir; odatda eks-dividend sanasidan 4 kun o'tgach va dividendlar to'lovi kuniga qadar 2-3 hafta ichida belgilanadi. To'lov sanasi – hissadorlarga cheklar tarqatiladigan kun. Dividend shuningdek o'tkazish bilan yoki to'lov topshirig'i bilan to'lanishi mumkin. Dividendlarni to'lash shakli quyidagilar bo'lishi mumkin: pul to'lovlari, aksiyalar, obligasiyalar, tovarlar.

Biroq, hissadorlik jamiyati ixtiyorida imtiyozli aksiyalar mavjud bo'lgan jamiyat, birinchidan, oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni puldan boshqa

istalgan shaklda to'lash, ikkinchidan, ular tomonidan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lmaydi.

Dividendlar to'lovi yoki hissadorlik jamiyati o'zi tomonidan yoki bunga maxsus vakil qilingan bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Dividend miqdori soliq hisobga olinmagan holda e'lon qilinadi. Soliq undirish ushlab qolingan miqdorni byudjetga o'tkazuvchi hissadorlik jamiyati yoki bank tomonidan dividend to'lanayotgan paytda bajariladi.

Dividend to'lovlari manbalari bo'lib: 1) hisobot yilining sof foydasi; 2) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi; 3) bu maqsadlar uchun yaratiladigan maxsus fondlar (masalan, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovi uchun fond) hisoblanadi.

Hissadorlik jamiyati dividendlar siyosati turining shakllanishiga iqtisodiy, daliliy, tashkiliy omillar ta'sir qiladi. Me'yoriy omillar o'z mohiyatiga ko'ra, dividend siyosatini shakllantirish bo'yicha hissadorlik jamiyati uchun manevr imkoniyati borasidagi cheklovlarni ko'rsatib beradi. Bu cheklovlar qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan beriladi. Bunday cheklovlar qatoriga quyidagilar kiradi: a) dividend to'lovlari manbasi bo'yicha me'yoriy cheklov (to'lovlarni amortizasiya chegirmalaridan amalga oshirish mumkin emas, hatto hissadorlik jamiyatiga ularni o'z vazifasida qo'llash foydali bo'lmasada); b) hissadorlik jamiyati to'lash qobiliyati bo'yicha me'yoriy cheklov (dividendlarni, agar korxona to'lovlarni amalga oshirgan taqdirda sinish belgilariga ega bo'lmasa va sinmasagina to'lash mumkin). Iqtisodiy omillarga iqtisodiy xususiyatga ega va korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan quyidagi omillar kiradi: a) dividend to'lovlarining haqiqiy to'lash qobiliyati va muddatlari. Bu omil hisobga olish siyosati sohasida yotadi. Shunday hodisalar bo'lishi mumkinki, hisobot hujjatlari bo'yicha korxona foyda ko'rib ishlaydi, lekin pul mablag'larining yetishmasligini chindan his qiladi. Shuning uchun dividend to'lovlari muddatlari rasmiy to'lash qobiliyati bilan emas, balki haqiqiysi bilan bog'liq; b) qimmatli qog'ozlarni soliqqa tortish; v) kreditor kafolatlari bayon qilingan kredit shartnomasining mavjudligi. Bunday shartnoma to'lanayotgan dividendlar va

korxonaning ichki rivojlanishiga qaratiluvchi mablag' qiymatining cheklanishiga ishlaydi. Kreditor kafolatlari shundan iboratki, u kelgusi foizlar qoplanishini ta'minlovchi mablag'lar yo'naltirilishi mumkin bo'lgan maxsus fond barpo qilinishini talab qilishi mumkin. Daliliy omillar hissadorlar manfaatlarining majburiy hisobga olinishiga asoslangan. Odatda, yirik va mayda hissadorlar manfaati bir-biridan farq qiladi. Maydalari dividendlarni maksimallashtirishdan manfaatdor. Shu bilan birga, ular hissadorlik jamiyati ichki rivojlanishi uchun mablag'siz qolishi ham mumkin. Yirik hissador (investor), o'sishning ichki vositalari ko'rsatkichini ko'paytirib, odatda, hissadorlik jamiyati rivojlanishiga mablag'larni ko'proq qo'yishga intiladi. Biroq, investorlar manfaatlarini korxonadagi daromadlarning to'g'ri siyosati orqali birlashtirish varianti ham bo'lishi mumkin. Tashkiliy omillarga hissadorlik jamiyati qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividend qiymatini hisoblash usulini belgilovchi omillar kiradi. Odatda, u hissadorlik jamiyati nizomida oldindan aytib qo'yiladi va u qanchalik qat'iy aytilganligiga oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lovi uchun mo'ljallangan foydaning miqdori bog'liq bo'ladi.

Omilling xilma-xilligi hissadorlik jamiyati dividend siyosati turlarida aks etadi: sust va faol. Dividend siyosati turi bozorning rivojlanganlik darajasiga, korxona tomonidan ishlab chiqarish va moliyaviy operatsiyalarning amalga oshirilishi natijasida yo'qotishlar paydo bo'lishini oldindan ayta olishga va shunday xavfga bog'liq bo'ladi. Agar axborot shaffofligi va oldindan ayta olish kuzatiladigan, vaziyatni beqarorlashtirishga qodir omillar tenglashtirilgan, shakllangan, rivojlangan bozor yuz bersa, unda dividend siyosatining turi sust hisoblanadi. Bu holda ishlab chiqarish va moliyaviy xavflar darajasi eng kam va hissadorlar ancha uzoq muddatga dividend to'lovlari miqdorini rejalashtirish imkoniyatiga ega. Buning oqibatida qimmatli qog'ozlar egasiga u daromadni qanday ko'rinishda olishining farqi yo'q: daromadlar yoki dividend to'lovlari ko'rinishida yoki u oqibat natijada aksiyalar kurs qiymatining ortishiga olib keluvchi har qanday harakatlarga rozi bo'ladi. Hissador uchun muhimi – qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan kelib chiquvchi o'z huquqini amalga oshirishdir.

Dividendlarga nisbatan sust siyosat o'tkazish haqidagi qarorni qabul qilish uchun, odatda, "to'lovlar miqdorini muvofiqlashtirish" tushunchasi ishlatilmaydi. Agarda noaniqlikning katta darajasiga hissadorlik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy operatsiyalari natijasida yo'qotishlar xavfiga ega rivojlanayotgan bozor yuz bersa, unda olinuvchi daromadlarning ko'plab obyektiv va subyektiv omillarga o'ta bog'liqligi mavjud bo'ladi, zararlar xavfi katta bo'ladi, axborot yopiqligi ro'y beradi. Bu holda hissadorlik jamiyati tomonidan dividend to'lovlari miqdorini muvofiqlashtirishning ma'lum usullarini ishlab chiqishni talab qiluvchi faol dividend siyosati zarur. Shu bilan birga, hissadorlik jamiyatidagi dividend siyosatining faol va sust turini shakllantirishda qo'llanuvchi usullar zahirasi xilma-xildir.

Dividend to'lovlarining vaqtida doimiy usul hissadorlik jamiyati siyosatining oldin ayta olish xossasini oshiradi; hissadorga ma'lum vaqt davomida u qimmatli qog'ozlar bo'yicha qayd qilingan daromadni olishi oldindan ma'lum. Inflyasiya davrida bu usul samarali emas. Muddat daromad miqdori qayd qilingan vaqtning boshlang'ich paytidan qanchalik uzoq bo'lsa, dividend siyosatining jozibadorligi shunchalik oz bo'lib qoladi. Hissadorlarning salbiy kayfiyatlarini bartaraf qilish uchun ham doimiy kvartal to'lovlari qo'llanadi. Ushbu usulning boshqa turi inflyasiya qoplamasiga ega barqaror dividendlar usulidir.

Dividendlarni doimiy o'stirish usuli. Bu o'sishning kattaligi inflyasiya yo'qotishlariga qaraganda kamroq bo'ladi. Bu holda hissadorning qimmatli qog'ozlari jamg'arma moliya hujjatidan iboratdir.

Xususiy aksiyalarni sotib olish usuli. Agar to'lovlarning zarur miqdorini belgilash bilan bog'liq bo'lgan tahlil natijalariga ko'ra korxonada taqsimlanmagan foyda qolsa, unda bo'sh mablag'larni o'z iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida qandaydir loyihaga investirlash imkoniyati bo'lmagan vaziyat yuzaga keladi. Bu holda, agar aksiyalarning bozordagi narxi ancha past bo'lsa, xususiy aksiyalarni sotib olish tashkil qilinadi va bu bilan dividend to'lanuvchi qimmatli qog'ozlar miqdori qisqaradi, va shunday ekan, bitta aksiyaga to'lovlar miqdori

oshadi. Bundan keyin bu qimmatli qog'ozlar xarid narxidan ortiq bo'lgan narx bo'yicha tag'in sotilishi mumkin.

Aksiyalarni taqsimlash va birlashtirish usuli. Taqsimlash – bu aksiyaga foydaning hisob qiymatini maydalash bo'lib, u aksiyaning kurs narxi o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Taqsimlash operasialarini amalga oshirish tajribasi shuni ko'rsatdiki, yangi aksiyaning narxi haqiqatan necha marta bo'lish bajarilgan bo'lsa, to'ppa-to'g'ri shuncha marta kamaymaydi. Ularning narxi, ehtimol yangi aksiyalar likvidliligining oshishi hisobiga birmuncha oshadi. Birlashtirish samarasi qiyinroq bashorat qilinadi. Aksiyaning kurs qiymati qaysi tomonga o'zgarishini darrov aytish mumkin emas.

Doimiy to'lovlar va ekstradividendlar usuli. Bu usulda aksioner har qanday holatda u unga ma'lum minimumni olishini biladi. Shu bilan birga, agar AJda qo'shimcha to'lovlar imkoniyati bo'lsa, unda u albatta amalga oshadi. Bu usulning o'ziga xosligi shuki, AJ rahbariyati tomonidan “ekstrato'lovlar” uchun tanlangan payt ma'lum darajada aksionerlar uchun kutilmagan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, dividend siyosatini ishlab chiqishda AJ moliyaviy ahvoli va rivojlanish istiqbollari bog'liq ravishda barcha ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga olib, dividend to'lovlarining har xil variantlaridan mohirona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon nazariyasi va amaliyoti dividend siyosati ko'rsatkichlarini hisoblash sohasidagi ham sodda, ham samarali amaliy formulalarning ko'pchiligiga ega. Ulardan ba'zilar olingan manbalarga dalillar bilan quyida ko'rsatilgan.

Bitta aksiya foydaliligi korxona o'z-o'zini moliyalash tartibida ishlayotganda hisoblaniladi va u quyidagi formula orqali topiladi:

$$(EPS) = P(1 - tax) / OA, \quad (1.4);$$

Bu yerda: P – soliqqa tortishga qadar foyda;

tax – foydadan soliqqa va boshqalarga ajratmalar darajasi;

OA – oddiy aksiyalar miqdori.

Agar korxona o'z faoliyatida zayom mablag'laridan foydalansa, unda hisob formulasi bir muncha murakkablashadi:

$$(EPS) = [P(1 - tax) - r^n IIK] / OA, \quad (1.5);$$

Bu yerda: t – jalb qilingan mablag'lar xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarning daraja foizi;

PK – jalb qilingan mablag'larning o'rtacha qiymati.

Agar aksiya kursini aniqlash kerak bo'lsa, unda u soddaroq chizma bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$Aksiya\ kurs\ (K) = (Bitta\ aksiyaga\ dividend / Ssuda\ foizi\ me'yori) * 100$$

Agar bitta aksiyaga daromadni aniqlash talab qilinsa, u holda quyidagicha aniqlanadi:

$$1\ aksiyaga\ daromad = (Bitta\ aksiyaning\ nominal\ qiymati * dividend\ nominalga\ \%larda) / 100;$$

Agar tashkilotda oddiy aksiyalar dividendlar darajasi o'zgarishining doimiy dinamikasi bilan bo'lsa, unda sarmoya narxi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_e = [D_1 / P_0 \cdot (1 - K_{fc}) + g], \quad (1.6);$$

Bu yerda: K – sarmoya narxi;

D – dividendning yaqin davrdagi kutilayotgan qiymati;

R – bitta oddiy aksiyaga emissiya narxi;

K_{fc} – oddiy aksiyalarni chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar koeffitsiyenti bo'lib, u ularning emissiya narxiga mutlaq qiymati nisbatiga teng bo'ladi;

g – dividendlar o'sishining kutilayotgan sur'ati, koeffitsiyent.

Dividend to'lovlarini muvofiqlashtirish muammosiga turlicha yondoshish mumkin. Bir tomondan, muvofiqlashtirish ma'lum mezonlarni maksimallashtirish va minimallashtirishdagi ko'rsatkichlar to'plamini bildiradi. Ikkinchi tomondan, muvofiqlashtirish deganda xulqning shunday strategiyasini tanlashni tushunish mumkinki, unda barcha tomonlar manfaatlari eng yuqori darajada qondiriladi.

Hozirgi sharoitda korxona tomonidan to'lanadigan dividendlar hajmining eng maqbul qiymatini belgilash usullarini mustaqil ravishda tanlaydi. Shu bilan

birga, faqat shu korxonaga, tarmoqqa yoki hatto mintaqaga xos bo'lgan alohida xususiyatga ega mezonlar ham ko'rib chiqiladi.

Umuman olganda, mamlakat korxonalarida dividend siyosatining samaradorligi hozirgi vaqtda yetarli emas, deb hisoblanadi. Barcha belgilarga ko'ra, yaqin bir necha yillarda korporativ qog'ozlari dividend daromadi emas, balki kurs o'sishi aksiyalari bo'lib qoladi.

Ish haqi. Ish haqini mehnatdan foydalanish uchun, xodimlarning mehnatdagi xizmatlari uchun to'lanadigan narx sifatida belgilash mumkin. Turmushda ish haqi xodim o'z xarajatlari va mehnat natijalariga muvofiq oladigan va turmushning ma'lum darajasini ta'minlash uchun foydalanadigan pul mablag'larining ma'lum miqdori sifatida tushuniladi.

Ish haqi huquqiy kategoriya sifatida – bu tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z vazifalarini bajargan xodim mehnatiga haq to'lashdir.

Ish haqi mehnat narxining o'zgartirilgan shakli bo'lib, uning qiymati quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishchi kuchining qayta tiklanishini ta'minlovchi turmush boyliklari qiymati bilan;
- mehnat bozorida (uning tegishli segmenti doiralarida) talab va taklifning o'zaro nisbati bilan;
- ishchi kuchining iqtisodiyotdagi faoliyati mahsuldorligi bilan belgilanadi.

Mehnatga haq to'lash ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun, jumladan, ta'til, bayram kunlari va boshqa ishlanmagan vaqt uchun mehnat qonunlari va jamoa shartnomalariga muvofiq muntazam olinadigan haqdir. Pul daromadlarining bu turi ish tartibi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq rag'batlantiruvchi to'lovlar, ustama haqlar, mukofotlar va bir marta beriladigan, rag'batlantiruvchi to'lovlarni, shuningdek, oziq-ovqat, uy-joyga doimiy xususiyatga ega to'lovlarni o'z ichiga oladi.

Ish beruvchi nuqtai nazaridan xodimlarning ish haqi ishchi kuchini saqlashga xarajat va mahsulot tannarxi darajasi va foydaning bir qismidir. Biroq,

ish haqini inson kapitaliga investisiyalar deb baholash mumkinki, undan foydalanish kelajakda firma daromadini jiddiy ravishda oshirishi mumkin.

Iqtisodiyotning davlat sektorida (byudjet va boshqa sohalar) to'lanadigan ish haqi davlat, munisipal boshqaruv organlari bilan tartibga solinadi, biznes va tadbirkorlik sektorlarida to'lanuvchi ish haqi va uning darajasi muayyan biznes-tarkib tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi hamda bozor iqtisodiyoti qonunlariga ko'ra shakllanadi. Iqtisodiyotning bozor sektorlarida xodimlarni ishga yollash rekruting kompaniyalar va firmalar vositasida amalga oshiriladi, unda har bir tijorat tarkibi talab darajasidagi mahoratga ega mutaxassis iste'mol savatchasining daromadning beriluvchi ijimoiy paketlar bilan shakllanishida faol ishtirok etadi. Bu "ishchi kuchi narxi"ni belgilaydiki, bunga farzandni chet elda o'qitish qiymati, kottej qiymati, BMW va boshqa tijorat transfertlari kirishi mumkin.

Ijtimoiy transfertlar – bu ekvivalent olinmasdan jamiyatga amalga oshiriladigan pullik yoki natural (xizmatlar yoki tovarlar ko'rinishidagi) to'lovlardir. Ijtimoiy transfertlar to'lovining maqsadi – ijtimoiy himoya va aholi turmush sifatini oshirish, shuningdek, mamlakatdagi inson resurslari imkoniyatlarini rivojlantirishdir. Ijtimoiy transfertlarning tipik namunalari pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, stipendiya, ijtimoiy jamg'armalar yoki o'zga manbalar mablag'laridan boshqa to'lovlar va xizmatlardir. Ijtimoiy transfertlar to'lovi uchun mablag'lar manbalari davlat va mahalliy byudjetlar, ijtimoiy sug'urtalashning byudjetdan tashqari jamg'armalari, jamoat tashkilotlari mablag'laridir.

Ijtimoiy transfertlar yoki transfert to'lovlari davlat va notijorat (professional, diniy, xayriya) tashkilotlari tomonidan boyliklarni pul va natural shakllarda aholiga, asosan, bepul asosda berishdan iborat qayta taqsimlash xususiyatiga ega maqsadga qaratilgan operatsiyani anglatadi.

Aholi daromadlarini shakllantirish va ishlatish jarayoni jamiyat rivojining har bir bosqichida o'z xos xususiyatga ega. Hozirgi bozor sharoiti xodimlar daromadlarining parametrlarini tubdan o'zgartirib yubordi:

– birinchidan, manbalar o'zgardi – an'anaviylariga yangilari (tadbirkorlik faoliyatidan daromad, mulkdan daromadlar);

– ikkinchidan, daromadlarning sifat va miqdor bahosi o'zgardi, egallanuvchi va haqiqatan egallanuvchi daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi;

– uchinchidan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi ish haqining ulushi bilan, jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlarida ijtimoiy transfertlar ulushi bilan bog'liq aholi daromadlarining solishtirma bahosi kiritildi;

– to'rtinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi shakllari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar, uy-joy (ko'chmas mulk) sotib olishga xarajatlar, bankka qo'yilmalar.

Aholi daromadlari shakllanishining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

– mehnatga ko'ra (uning natijalari va sarf-harajatlariga ko'ra) taqsimlash tamoyili;

– mulkka ko'ra taqsimlash tamoyili (mohiyati shundan iboratki, mulkning har qanday turiga egalik qilish daromad olishni mo'ljallaydi);

– ijtimoiy-kafolatlangan me'yorlar bo'yicha taqsimlash tamoyili (barcha jamiyat a'zolariga, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy jihatdan yaxshi himoyalangan qatlamlariga ijtimoiy himoyaning ma'lum darajasini taqdim qilish).

Mehnatga haq to'lash ulushining pasayishi bozorga o'tishda obyektiv sabablarga ega: ishlab chiqarish hajmining pasayishi va yangi daromad manbalarining (tadbirkorlik daromadi va mulkdan keladigan daromad) paydo bo'lishidir. Bu pasayish ijtimoiy transfertlar ko'rinishidagi daromadlar shakllanishining manbai bo'lgan ijtimoiy maqsad fondlariga ajratmalarning qisqarishiga olib keladi.

Aholining shaxsiy daromadlarini tahlil qilishda “jami”, “nominal” va “real” daromadlar kabi tushunchalarni qo’llash mumkin.

Jami daromadlar – bu shaxsiy iste’molga shaxsiy yordamchi xo’jalikdan natural tushumlar qiymatini va aholiga ijtimoiy fondlar hisobiga bepul va imtiyozli xizmatlar qiymatini hisobga olgan holda kirimning barcha manbalari bo’yicha pul daromadlarining umumiy yig’indisidir. Aholi jami daromadlari tarkibi 1.3-rasmda ko’rsatilgan.




1.3-rasm. Aholi daromadlarining tarkibi.

Fuqarolar daromadlari darajasi ular farovonligining muhim ko’rsatkichidir. U jamiyatning har bir a’zosining dam olish, bilim olish, sog’liqni saqlash, zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Undan tashqari, oila daromadlari haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish mamlakat iqtisodiyotidagi holat haqida eng qimmatli axborot beradi va uning iqtisodiy-siyosiy kelajagini bashorat qilishga yordam beradi. Shuning uchun iqtisodchilar aholi daromadlari shakllanishini doimiy kuzatib boradi.

Nominal daromadlar aholi pul daromadlarining soliq va to'lovlar to'lashga qadar va narxlar o'zgarishidan qat'iy nazar darajasini tavsiflaydi. Bu daromad turmush darajasini ifodalamaydi.

O'z ixtiyoridagi daromadlar soliqlarni to'lash va majburiy to'lovlardan keyingi, aholi ixtiyorida haqiqatdan ham qoladigan, oxirgi iste'mol uchun sarf qilish mumkin bo'lgan daromad hisoblanadi. Aholining o'z ixtiyoridagi daromadini quyidagicha tasniflash mumkin (1.4- rasm).



1.4-rasm. Aholining o'z ixtiyoridagi daromadlari

Shunday qilib, aholining jami va pul daromadlari umumiyga – soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashgacha bo'lganlarga va tasarrufdagiga – ko'rsatilgan to'lovlarni amalga oshirishdan keyingi netto daromadga bo'linadi.

Real daromadlar – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko'rsatadi.

Real daromadlar iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun narxlar dinamikasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni ular o'z ixtiyoridagi daromadlar va narxlarning o'sishi

paytida pasayadi. Real va nominal daromadlar o'rtasidagi tafovutlar inflyasiya, soliqlar, to'lovlar hisobiga hosil bo'ladi.

Nominal va real daromadlarning o'zaro aloqasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$RRD = (ND - NP)/J, (1.7);$$

Bu yerda: ND – nominal daromadlar;

NP – soliqlar va majburiy to'lovlar;

J – iste'mol narxlari indeksi.

Aholining nominal va real daromadlarini hisoblash natijasida aholining real daromadlari indeksi hisoblanadi. Buni hisoblash uslubini quyidagi 1.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

1.2-jadval

Aholining real daromadlar indeksini hisoblash uslubi (shartli statistik ma'lumotlar asosida)

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis davr	Joriy davr
1.	Aholining nominal daromadlari, mln.so'm	567	598
2.	Umumiy nominal daromaddan chegirib tashlanadigan har xil to'lovlar (soliqlar va ijtimoiy to'lovlar)	98	112
3.	Aholining ixtiyoridagi daromadi, mln. so'm (1-2)	469	486
4.	Iste'mol narxlari indeksi	1,0	1,16
5.	Real daromad, mln. so'm (3:4)	469	418,9

Qator mamlakatlarda aholining nominal pul daromadlarining o'sishi so'nggi yillarda inflyasiya, soliqlar va to'lovlarni hisobga olgan holda, ularning real qiymatlarining jiddiy pasayishi bilan birga kechadi.

Aholining o'z ixtiyoridagi daromadlarining pasayishi quyidagi omillarga bog'liq:

– birinchidan, turmush darajasi tirikchilik uchun eng kam miqdordan pastroq bo'lgan aholi ulushining o'sishi, qashshoqlik jarayonlarining chuqurlashuvi, qashshoqlik chegaralaridan yuqoriroq yashovchi aholi daromadlarining qisqarishi bilan;

– ikkinchidan, (asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga, transportga, uy-joyga) narxlar dinamikasi va ovqatlanish sifati ko'rsatkichlarining yomonlashuvida ifodalanadigan (oziq-ovqat mahsulotlariga harajatlar nooziq-ovqat tovarlariga harajatlardan oshib ketsa) daromadlar o'rtasidagi nomaqbul mutanosiblik bilan;

– uchinchidan, xizmatlar tarifining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga qaraganda tezroq ko'payadi.

Shunday qilib, aholi daromadlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni ikki guruhga bo'linadi:

1. Tenglashtiruvchi:

- oila ish haqlarining qo'shilishi;
- oilada yashovchi va o'z pensiyalarini oila byudjetiga kirituvchi pensionerlarning pensiyalari;
- oila a'zolari tomonidan olinadigan yordamlar.

2. Tabaqalashtiruvchi:

- mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining mavjudligi, ularning oiladagi soni (ayniqsa, agar ular oila daromadini yaratishda ishtirok etmasa);
- ishlovchi va ishlamaydigan oila a'zolarining o'zaro nisbati.

Daromadlar tarkibi va shakllanishi muammosi o'rganishda mehnatga oid va mehnatga oid bo'lmagan daromadlarni farqlash zarur. Yaqin vaqtgacha iqtisodiyotni boshqarishning hukmron-buyruq usullari sharoitlarida mehnatga oid daromadlarga davlat va kooperativ korxonalar hamda tashkilotlardagi mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlarni kiritish qabul qilingan edi. Rasmiy davlat kanallaridan tashqarida olingan daromadlarning barcha turlari mehnatga oid emas, deb tavsiflanardi. Shu asnoda umumiy daromadlarning mehnatga oid va mehnatga oid bo'lmaganlariga ajratilishi muammosida, ayniqsa mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish shakllari xilma-xil bo'lgan sharoitlarda g'oyatda muhim yangi

jihatlar paydo bo'ladi. Eng avvalo, gap tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar va mulkdan keladigan daromadlar kabi daromadlar turlari haqida boradi. Mahsulot ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'ziga xos mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdan oila byudjetiga tushumlarning asosi, shubhasiz, mehnat. Xuddi shu narsa shaxsiy yordamchi xo'jalikda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlarga ham tegishlidir.

Fuqarolarning ham asosiy, ham yordamchi mashg'uloti bo'lgan alohida mehnat faoliyati – mehnatning ijtimoiy bo'linish xalqasidir, bu mehnat – umumiy ijtimoiy mehnatning asosiy qismidir.

Mehnat daromadi mehnat faoliyati bilan bog'liq, investisiya daromadi esa mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lishi yoki bog'liq bo'lmasligi mumkin. Mehnat va investisiya faoliyati o'rtasidagi cheklangan aloqa xususiy mablag'larni korxonalar yaratishga joylaydigan va shu bilan bir paytda uning rivojlanishi va samarali ishlashi uchun tashkiliy, boshqaruv va boshqa vazifalarni bevosita amalga oshiradigan tadbirkorlar uchun xosdir.

Mehnatga oid bo'lmagan daromadlarga haqiqiy ma'noda faqat mulkdan, jamiyatda qabul qilingan huquqiy me'yorlardan, ahloq va fuqarolik me'yorlaridan chetga chiqish bilan (shuningdek, o'zini olib qochish bilan) olib boriluvchi alohida mehnat va tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlargina kiradi. Bunday daromadlar o'z mohiyatiga ko'ra jinoiydir.

Shaxsiy daromadlarning ko'rib chiqilgan turlaridan tashqari ularning tasnifini quyidagi belgilar bo'yicha keltirish mumkin.

Ashyoviy shakliga ko'ra daromadlar pullik va natural bo'lishi mumkin. Daromadlarning natural shakli – bu nafaqat shaxsiy yordamchi xo'jalik va uy xo'jaligidan daromadlar, tabiiy shakldagi ijtimoiy yordam (mahsulotlar, kiyimlar, o'tin), balki xodimlarga ish haqini o'z korxonasi mahsuloti shaklida berish hollari yoki to'lanmaslik bo'hroni sharoitlarida ular tomonidan barter bo'yicha o'rniga olingan mahsulotlar hamdir. Bundan tashqari, daromadlarning tabiiy shakli korxona xodimiga qimmatli sovg'alar yoki firma badal paketiga kiruvchi tovarlar

va xizmatlar (transportga yo'l chiptalari, basseynga abonementlar) bo'lishi mumkin.

Olish manbasiga ko'ra korxonalar iste'mol fondidan (korxonalardagi ish haqi, mukofotlar, ijtimoiy to'lovlar), davlat byudjetidan va davlat byudjetdan tashqari fondlaridan (pensiya, nafaqa, yordam, stipendiya, imtiyozlar) va nihoyat fuqarolar mulkidan (dividend, foiz, ijara to'lovi, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan daromadlar) olinadigan daromadlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga, asosiy va qo'shimcha daromad manbalarini ajratish mumkin. Qo'shimcha daromad – mablag'larning asosiy manbasidan tashqari olinadigan daromaddir (o'rindoshlik bo'yicha ishlash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar va b.q.). Daromad olishning qo'shimcha manbasiga asosiy daromadning yetarli emasligi tufayli murojaat qiladilar – so'nggi yillarda 50,0 %dan ortiqroq aholi qo'shimcha daromad olish uchun qo'shimcha ravishda ishlashga majburdirlar. Qo'shimcha daromadlarga intilishning yana bir sababi, asosiy daromad qisqargan mahalda turmush darajasining jiddiy ravishda tushib ketishi xavfini kamaytirishga imkon beruvchi daromad manbalarini diversifikasiyalashga intilishdir.

Qonuniylik darajasiga ko'ra, qonuniy va noqonuniy daromadlarni farqlash kerak bo'ladi. Huquqiy jihatdan oqlangan shaklga ega qonuniy daromadlardan farqli ravishda, noqonuniy daromadlar manbai faoliyatning hisobga olinmagan va huquqqa qarshi turlaridir. Noqonuniy daromadlarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi – narkotik savdosi, reket, kontrabanda, korrupsiya bilan bog'liq kelib chiqishi jinoiy noqonuniy daromadlardir. Ikkinchisi – iqtisodiy xususiyatga ega daromadlar: soliq xizmatlari tomonidan ro'yxatga olinmagan, lekin xususiyatiga ko'ra jinoiy bo'lmagan faoliyat turlari (ruxsatnomasiz savdo qilish, yashirin ustaxonalar va h.k.).

Aholi umumiy daromadlarini tahlil qilishda undan foydalanish yo'nalishlarini ko'rib chiqish muhimdir.

Umumiy daromaddan foydalanish tarkibi quyidagi yo'nalishlardan hosil bo'ladi:

- I. Iste'mol harajatlari:
 - oziq-ovqat;
 - alkogol ichimliklar va tamaki mahsulotlari;
 - nooziq-ovqat mahsulotlari;
 - xizmatlar.
- II. Soliqlar, yig'imlar, to'lovlar.
- III. Boshqa harajatlar.
- IV. Jamg'armalar.

Shunday qilib, aholining jami daromadlari iste'molga shaxsiy yordamchi xo'jalikdan natural tushumlar qiymatini va aholiga ijtimoiy fondlar hisobiga bepul va imtiyozli xizmatlar qiymatini hisobga olgan holda kirimning barcha manbalari bo'yicha pul daromadlarining umumiy yig'indisini tashkil etadi.

1.3. Aholi turmush darajasining ijtimoiy standartlari va ehtiyojlar tizimi bilan bog'liqligi

Davlatning ijtimoiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat xususiyatlarini ifodalashning miqdoriy indikatorlari ham mavjud bo'lib, ularga turli indeks va standartlar kiradi. Miqdoriy ijtimoiy ko'rsatkichlar nafaqat qiyosiy ahamiyatga ega va ijtimoiy siyosat me'yorlari vazifasini bajaradi, balki sifatning rivojlanish yo'nalishlari hamda tarkib darajalarini belgilovchi omillar ham hisoblanadi.

Eng ko'p qo'llaniluvchi integral miqdoriy ko'rsatkichlardan biri – BMTda qabul qilingan inson salohiyatini rivojlantirish indeksidir. Unda sog'liq va umr davomiyligi darajasi, katta yoshdagi aholining savodlilik darajasi va aholining o'quv yurtlariga jalb etilishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM umumlashtirib baholanadi. Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi aholi turmush sifati va darajasini xalqaro taqqoslash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi paytda ushbu indeks bo'yicha dunyoning ko'pchilik mamlakatlarini qiyoslash mumkin.

Turmush sifatining integral ko'rsatkichlaridan tashqari, ijtimoiy boshqaruv amaliyotida ijtimoiy sohaning alohida tarkibiy qismlarini rivojlantirishning aniq indikatorlari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday indikatorlarga, eng avvalo, quyidagilar kiradi:

- tirikchilik minimumi;
- o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad;
- ijtimoiy to'lovlar, pensiya, nafaqa, stipendiya, ish haqi miqdorlari;
- iste'mol narxlari indeksi;
- ishsizlik darajasi;
- Djini koeffitsiyenti (eng ko'p va eng kam ta'minlangan aholi desillarining o'zaro nisbati);
- eng kam ish haqi;
- yagona tarif setkasining (YATS) birinchi toifasi;
- pensiya yoshi;
- yagona ijtimoiy soliq me'yori yoki davlat ijtimoiy fondlariga jami to'lovlar;
- jami daromadlarga nisbatan kommunal to'lovlar ulushi.

Bu ro'yxatni kengaytirish mumkin, chunki, ijtimoiy siyosatning har bir yo'nalishi bir tomondan xususiy me'yorlar bilan, boshqa tomondan esa mavjud ijtimoiy siyosatni tavsiflovchi, davlatning javobgarligini belgilovchi va uni nazorat qilishga imkon beruvchi ko'rsatkichlar bilan aniqlashtirilishi mumkin.

Ijtimoiy me'yorlar – bu ijtimoiy jarayonning eng maqbul ahvolining ilmiy asoslangan miqdoriy va sifatiy tavsifi bo'lib, u jamiyat rivojining va davlat imkoniyatlarining ob'ektiv qonuniyatlarini hisobga olish asosida olingan va moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarni eng yuksak darajada qondirishga, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'rinda ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish samardorligini baholashning etaloni va ijtimoiy siyosatning maqsadi, ijtimoiy sohani boshqarishning zarur elementi bo'lib qoladi.

Ijtimoiy standartlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi yo'nalish, boyliklarni taqsimlashning asosi, ijtimoiy kafolat shakli va davlatning omma

oldidagi majburiyati bo‘lib, u turli ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan, turmushning istalgan darajasi va sifati haqida hosil bo‘lgan tasavvurlar yoki qonuniy belgilangan me‘yorlar ko‘rinishida majburiy yoki tavsiyali xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik ijtimoiy standartlar aholi guruhlari oldidagi majburiyatlari bo‘lib, byudjet hisobiga ta‘minlanadi. Davlat ijtimoiy standartlari rasmiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar orqali belgilanadi, shundan keyin ular mamlakatning barcha hududida qo‘llash uchun majburiy bo‘lib qoladi. Davlat tomonidan belgilangan me‘yor o‘lchamlar davlatning moliyaviy imkoniyatlariga va inflyatsiya sur‘atlariga bog‘liq ravishda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Davlat ijtimoiy standartlarini belgilashdagi yondoshuvlarga muvofiq, ikki guruhga ajraladi.

Birinci guruh – bu eng kam ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlashga mo‘ljallangan standartlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- aholi guruhlari uchun tirikchilik minimumi;
- mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori;
- yagona tarif setkasining birinchi toifasi me‘yori;
- pensiyaning eng kam miqdori;
- ijtimoiy yordamning eng kam qiymati;
- bepul ta‘lim va tibbiy xizmatlar bilan ta‘minlash me‘yorlari;
- nogironlar, keksalar, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga va aholining boshqa guruhlariga xizmat ko‘rsatish me‘yorlari.

Ikkinchi guruhga real yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat indikatorlari hamda ijtimoiy farovonlik me‘yorlari bo‘lgan “oqilona” yoki o‘rtacha standartlar kiradi. Ikkinchi guruhga, masalan, quyidagilar tegishli:

- o‘rtacha ish haqi;
- pensiyaning o‘rtacha miqdori;
- uy-joy bilan o‘rtacha ta‘minlanganlik;
- o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad;
- turmush sifati ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati.

Birinchi guruhdan farqli ravishda ikkinchi guruh standartlari, odatda, me'yorlar bo'lmay, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasining aynan indikatorlari sifatida namoyon bo'ladi.

Minimal ijtimoiy standartlar insonning tirik qolishi uchun davlat tomonidan ta'minlanadigan kafolatdir. Tirikchilik minimumi inson sog'lig'ini saqlash va uning yashash qobiliyatini ta'minlash uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarining, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning eng kam to'plamini o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tirikchilik minimumi asosida iste'mol savatchasi inson turmushini ta'minlashning eng kam me'yori bo'lib, u munosib turmushni emas, balki jismoniy tirik qolishni ta'minlaydi. Shubhasiz, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, pensiyaning eng kam miqdori, o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan eng kam daromad, eng kam stipendiya tirikchilik minimumidan past bo'lishi mumkin emas, chunki ta'minotning bu darajasiga erishilmagan taqdirda jismoniy yashash ilojisizligi boshlanadi.

Tirikchilik minimumi siyosati nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xos, balki rivojlangan mamlakatlarga ham xosdir.

Binobarin, bu vaziyatda ijtimoiy islohotlarning o'tkazilishi ham iqtisodiy o'tish bosqichidagi mamlakatlar uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki bu mamlakatlarda eski mexanizmlar ma'lum darajada buzilgan, yangilari esa hali yaratilmagan bo'ladi. Ommaviy qashshoqlik sharoitlarida davlatning asosiy vazifasi tirik qolish chegarasidan tashqarida yashovchi kishilar kategoriyasini ro'yxatdan chiqarish va butun aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish bo'lib qoladi. Aynan turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik sharoitlarida integral standartlar bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy standartlari oqilona, o'rtacha standartlar bo'lishi ham mumkin. Ular ijtimoiy vazifalarning rivojlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, munosib (muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda inson uchun qabul qilingan) turmush sifatining kafolatlari bo'lib xizmat qiladi. Davlatning

ijtimoiy faoliyati aholining ko'pchilik qismining turmushini tavsiflovchi o'rtacha ko'rsatkichlarni ta'minlash va rivojlantirishga qaratilgan.

Aholi turmush darajasi me'yor uchun qabul qilingan moddiy boylik va xizmatlarni iste'mol qilishga qaraganda real iste'mol bilan belgilanadi. Hozirgi islohot yillarida turmush darajasi 60% aholida tushib ketdi, 25-30% aholida nisbatan o'zgardi va faqat 15-20% aholida o'sdi.

Turmush sifati darajasini oshirish zaruriyati barcha mamlakatlar rivojlanishining hukmron talabi bo'lib bormoqda. Bu vazifani hal qilish uchun "eng kam ijtimoiy kafolatlarni" amalga oshirish; turmush darajasini saqlash va oshirish; inflyatsiyani to'xtatish, aholi daromadlari tabaqalanishini kamaytirish; aholi "o'rta qatlamlari" iste'mol bozorini rag'batlantirish; uy-joy bozori rivojlanishini rag'batlantirish; iste'mol mahsulotlari va xizmatlar sohasida mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash; ishchi kuchining mavjud narxini oshirish zarur.

Katta ulushdagi qashshoqlar mavjudligida aholining daromadlar bo'yicha yuksak darajada tabaqalanishi o'z mohiyatiga ko'ra, ko'pchilikning manfaatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy davlat tamoyillarini amalga oshirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Bu sharoitda aholi turmush darajasining eng kam standartlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali erishish mumkin. Ammo, iqtisodiy tanglik sharoitlarida davlatning o'z zimmasiga qo'shimcha ijtimoiy majburiyatlarni olishga qodirligidan umid qilishga ham asos yo'q.

I-BOB bo'yicha xulosa

1. Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, "aholi daromadlari" tushunchasining ta'rifi, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil davlat daromadlar siyosatini o'tkazish asosida

daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

- ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi.

- uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasini, qimmatli qog'ozlarni, shaxsiy mulkni sotib olishga xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar.

3. Tadbirkorlik daromadi tadbirkorlik qobiliyati va uddaburonligiga bog'liq. Bu daromad tadbirkor tomonidan quyidagi vazifalar bajarilganligi uchun uning mukofotidir: sarmoya, mehnat va tabiiy boyliklarning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning bir butun jarayoniga birlashtirilishi; u tomondan firmaning boshqarilishi bo'yicha qarorlar qabul qilinishi; yangi mahsulotlar, texnologiyalarning kiritilishi; qo'yilgan boyliklarga tegishli xavf.

4. Davlatning ijtimoiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat xususiyatlarini ifodalashning miqdoriy indikatorlari ham mavjud bo'lib, ularga turli indeks va standartlar kiradi. Miqdoriy ijtimoiy ko'rsatkichlar nafaqat qiyosiy ahamiyatga ega va ijtimoiy siyosat me'yorlari vazifasini bajaradi, balki sifatning rivojlanish yo'nalishlari hamda tarkib darajalarini belgilovchi omillar ham hisoblanadi.

II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI TURMUSH DARAJASI HOLATINING TAHLILI

2.1. Aholi daromadlarining shakllanishi va o'zgarishining bozor omillari

Aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyasiyaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi ¹.

Aholi daromadlari – bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va iste'mol, jamg'arma, turli yig'in va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuidir².

Aholi daromadlarini ularning tarkibiga turli xo'jalik subyektlari va davlat tomonidan ko'rsatiladigan bepul xizmatlarni qo'shmasdan ko'rib chiqish tadqiqot doiralarini toraytiradi, chunki aholining past daromadli guruhlarini daromadlarini takror ishlab chiqarishda ularning roli muhimdir.

Demak, daromadlarning shakllanishida, bizningcha, xodimlarning shaxsiy xususiyatlari va mehnatdagi yutuqlari, xodim band bo'lgan korxona, tashkilot, muassasaning faoliyat natijalari va umuman iqtisodiyotning rivojlanish darajasi muhim omil hisoblanadi. Aholi daromadlari yangidan yaratilgan qiymat o'lchamlariga, ularning yuzaga kelish manbasi sifatida mehnat unumdorligi darajasiga, davlatning soliq va ijtimoiy siyosatiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida daromadlarning mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning iqtisodiy shakllari sifatidagi muhimligi saqlanib qoladi. Mulkchilik munosabatlari xo'jalik tarkibi va boshqaruv tizimidan iborat har qanday iqtisodiyotning asosidir. Daromadning mulkchilik munosabatlarini amalga

¹ O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh, 2012 yil yakunlari, 2013 yil, №9

² Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Mehnat, 2009. – 366-b.

o'shishning iqtisodiy shakli sifatida belgilanishi uning sifat xususiyatlarini ochishga, chuqur ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ko'rsatishga imkon beradi.

Aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat o'rtasida, ikkinchi tomondan, uy xo'jaliklari va individlar o'rtasida yangidan yaratilgan qiymat qismini o'zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlash borasida yuzaga keluvchi umumiy munosabatlarni ko'rsatadi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, O'zbekiston Respublikasida aholining pul daromadlari yil sayin oshib bormoqda (2.1-jadval).

2.1-jadval


O'zbekiston Respublikasida aholining pul daromadlari va xarajatlari dinamikasi (yil boshiga nisbatan)*

Ko'rsatkichlar	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y
Aholining pul daromadlari, mlrd. so'm	9242,8	11674,3	15545,9	20247,3
Aholi jon boshiga oylik pul daromadlari, ming so'm	29779,6	37178,9	48912,7	62799,1
Aholining pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari, mlrd. so'm	9125,1	11439,6	15216,5	19887,4
Aholining tovar xarid qilish va xizmat to'lovlari pul sarf-xarajatlari, mlrd. so'm	7104,4	8529,4	11454,5	14891,8

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2009-2012 yillar mobaynida O'zbekistonda aholi pul daromadlari 9242,8 mlrd. so'mdan 20247,3 mlrd. so'mga, aholi jon boshiga pul daromadlari esa 29779.6 ming so'mdan 62799,1 ming so'mgacha ortgan.

Mamlakatimizda 2014 yilga qadar real ish haqini 2-2,5 barobar oshirish bo'yicha qo'yilgan strategik vazifaga muvofiq, 2012 yilda ham ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori 1,5 barobar ko'paytirildi (2.1.1-rasm).




2.1-rasm. Byudjet sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar ish haqining o'sishi (marta)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari.

Agar 2011 yilning dekabrda o'rtacha oylik ish haqi, xo'jalik subyektlari va byudjet sohalarini hisobga olganda, 200 AQSh dollariga teng bo'lsa, 2012 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSh dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real pul daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko'paydi³(2.2-rasm).

2.2-rasm. Aholi real pul daromadlarining o'sishi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari

³ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 16-b.

Shuningdek, Prezidentimiz o'z asarlarida joriy 2011 yilda o'rtacha ish haqi miqdorini byudjet sohasida – va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ham – 1,4 barobar oshirish, inflyasiyaning o'sish ko'rsatkichini 7-9 foiz darajasida saqlab turish ko'zda tutilayotganligini qayd etdilar.

Tabiiyki, ish haqi va aholi real daromadlarining ahamiyatli darajada o'sishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog'liq.

Aholi daromadlari asosan pullik daromadlar va natural shakldagi daromadlardan tashkil topgan. Ma'lumki, aholining pullik daromadlari tarkibiga ish haqi, tadbirkorlik daromadi, mulkdan keladigan daromad, ijtimoiy transfertlar kiradi. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholining yalpi daromadlari tarkibida pullik daromadlar ulushi kamayib, aksincha natural shakldagi daromadlar ulushi ortib bormoqda (2.2-jadval).

2.2-jadval

O'zbekistonda aholi yalpi daromadlarining tarkib jihatidan o'zgarishi, %*

Ko'rsatkichlar	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Jami daromadlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Pullik daromadlar	82,2	83,8	85,0	86,8	82,8
Ish haqi	28,6	29,6	30,2	29,4	23,2
Tadbirkorlik daromadi	32,4	34,0	33,2	36,4	39,7
Ijtimoiy transfertlar	15,7	15,9	17,4	14,8	13,3
Boshqa daromadlar	5,5	4,3	4,2	5,8	4,7
Natural shakldagi daromadlar	17,8	16,2	15,0	13,6	17,2

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2.2-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2008-2012 yillar mobaynida aholi daromadlari tarkibida pullik daromadlarning ulushi 82,2 foizdan 82,8 foizgacha, natural shakldagi daromadlar esa 17,8 foizdan 17,2 foizgacha kamaygan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, 2012 yilda respublika aholisi pul daromadlari 798934.8 mlrd.so'mni tashkil etgan.

2012 yilda umumiy pul daromadlarining salmoqli qismi, ya'ni 33%ini ish xaqidan keladigan pul daromadlari tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 1907 mlrd.so'mga va 30%ga oshgan. Ijtimoiy transfertlar, ya'ni pensiya, nafaqalar, stendiyalar 3106 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu esa umumiy pul daromadlarining 16,0 %idan iborat. Ijtimoiy tranfertlar 20112 yilda 2011 yilga nisbatan 908 mlrd.so'mga yoki 29,0 %ga oshgan.

Shuningdek, dehqon xo'jaligi mahsulotlari sotishdan tushadigan tushum ham pul daromadlarining salmoqli qismini tashkil etgan, ya'ni bu daromad 2012 yilda 4020 mlrd.so'mni tashkil etgan, bu esa yalpi pul daromadlarining 21%idan iborat.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishdan tushgan tushum 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 646 mlrd.so'm va 16% ga oshgan.

Tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar 2011 yilda 4267 mlrd. so'mni, 2012 yilda esa 5493 mlrd.so'mni tashkil etgan hamda 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 1229 mlrd.so'mga va 22%ga oshgan.

Yalpi daromadlar tarkibida pul daromadlari ulushining ortishi aholini to'lov qobiliyatiga ta'sir qiladi. Uy xo'jaliklari byudjeti tahlillari natijasiga ko'ra, yalpi daromadlar tarkibida pul daromadlarining ulushi 2011 yildagi 85,2% dan 2008 yilda 87,7%ga ortgan. Natural ko'rinishdagi daromadlar mos ravishda 18,7%dan 17,2% gacha qisqardi. Bunday tendensiya mehnatga haq to'lashning ortishi hisobga qishloq aholisining daromadlari, ijtimoiy transfertlarning, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan tushgan daromadlarning ortishi hisobiga yuz berdi. Qishloq aholisining pul daromadlari oshishining asosiy omillari quyidagilardir:

a) fermer xo'jaliklariga e'tibor bergan holda qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish tizimining takomillashtirilishi;

b) barcha mulk shakllarida ayniqsa, dehqon xo'jaliklarida mahsulot xosildorligining oshganligi;


v) uchdan ikki qismi qishloq joylarida istiqomat qiluvchi kam ta'inlangan oilalarni aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi.

Shu bilan birga, shahar va qishoq aholisining pul va pul ko'rinishida bo'lmagan daromadlari o'rtasidagi sezilarli darajasidagi farqi saqlanib qolmoqda. Shahar aholisining natural ko'rinishdagi daromadlari 2012 yilda 8,2% ni (2011 yilda 11,7%) tashkil etdi. Iste'molchi qondirishdagi natural ko'rinishdagi daromadlarning ta'sirini ustunligi qishloq aholisida saqlanib qolmoqda, shahar aholisining yalpi daromadlarining 40%ini ish haqi tashkil etmoqda.

2012 yilning birinchi yarmida qishloq joylarda yosh oilalarga qoramol sotib olish uchun 4,5 mlrd. so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

Ish haqi va ijtimoiy to'lovlarning ortishi aholi pul daromadlari ulushi ortishining asosiy pul omili bo'ldi. Byudjet tashkilotlari va idoralari ishchilarining ish xaqi oshirishga, pensiya, ijtimoiy to'lovlar, stependiyalarni oshirishga qaratilgan davlat siyosati va "Yoshlar yili" maqsadli dasturining amalga oshirilishi ish haqining 18,0% ga, ijtimoiy transfertlar ulushining ortishi (40,9% ga) aholining turli ijtimoiy qatlamlari orasidagi daromad farqining kamayishi ta'minladi¹.

Shu bilan birga, aholi daromadlarini ortishini quyidagi rasm dan ham ko'rishimiz mumkin (2.3-rasm).



2.3-rasm. Banklardagi aholi omonatlarining o'sish dinamikasi (mlrd. so'm)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asisida muallif hisobi

¹ <http://www.bearingpoint.uz>. Aholining farovonligi va mehnat bozori.

Aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi bo'yicha tadbirkorlik daromadlarining kamayishi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tijorat faoliyati uchun tovarlar olib kelinishni davlat tomonidan tartibga solish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotning normal sektorining qisqarishi natijasi bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur tendensiya yakka tartibdagi tadbirkorlarning respublika YaIMidagi ulushini, shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalarni ulushini ko'paytirish bilan izohlanadi.


Daromadlarining tabaqalanishi omillari to'lovlar o'rtasidagi farqlanishdan kelib chiqadi. Chunki har bir tarmoqda ish xaqining farqlanishi ichki omillar hisobidan yuzaga chiqadi. Bir tarmoq ikkinchi tarmoq bilan uzviy bog'liqligi ham pirovard natijalariga ta'sirini o'tkazadi.

Daromadlar tabaqalanishi xususiyatlari izohlashda xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha ish haqining turlicha darajada ekanligiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki islohotlar jarayoni tarmoqlarida turlicha kechmqda va bu o'z navbatida, ish xaqining ham har xil bo'lishiga olib keladi¹.

Buning natijasida mamlakatimizda o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori hisobot davrining so'nggi oyiga kelib 2011 yildagi 324,7 ming so'mdan 2012 yilda 501,7 ming so'mga qadar oshdi. Pensiyalarning o'rtacha miqdori esa hisobot davrining so'nggi oyiga 2011 yildagi 74,8 ming so'mdan 2012 yilda 117,9 ming so'mga yetdi.

Hududlararo aholi pul daromadlarini tabaqalanishi respublikada o'rtacha daromadlari o'sishining muhim omillaridan hisoblanadi. Aholi daromadlarining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan xududlarga o'tgan yillardagi kabi ish xaqlari nisbatan yuqori bo'lgan sanoati rivojlangan Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri kiradi. Jizzax, Namangan, Samarqand, Xorazm kabi 4 viloyatlarda aholi jon boshiga o'rtacha daromadlari respublika ko'rsatkichining 60-70%ini tashkil etdi.

¹ "Bozor, pul, kredit" jurnali, 2012 yil, 2-son, 34-36 betlar.



2.4-rasm. O'rtacha nominal ish haqi va pensiya miqdorining o'sishi (ming so'm)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

Hududlar o'rtasida aholi daromadlari bo'yicha farqni o'sishining asosiy sabablari xududlarning iqtisodiy salohiyatining pastligi va aholi bandligi bo'yicha muammolar bilan bog'liq.

Aholi daromadlarinig tabaqalashuvida iqtisodiy erkinlik ham muhim rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx nazorati va savdo-sotiq erkinligi iqtisodiyotning erkinlashishi sifatida tushiniladi. Lekin iqtisodiy erkinlikni ta'minlashda turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining erkinlashtirish qoidalarini ishlab chiqadi. O'zbekistonda iqtisodiy erkinlikni ta'minlashda, eng avvalo, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlar faoliyati chegaralash qoidasiga asosiy urg'u berildi. Chunki o'tish davri iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish silliq kechayotgan jarayon emas ekanligi va buni tartibga solib turish zaruratining muhimligi natijasida davlat iqtisodiyot subyektlari faoliyatiga aralashib turadi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas

mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

– ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi.

– uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasini, qimmatli qog'ozlarni, shaxsiy mulkni sotib olishga xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar.

2.2. Aholining iste'moli tarkibidagi o'zgarishlar tahlili

Aholi turmush darajasi yalpi iste'mol ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Iste'mol deganda, insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish jarayoni tushuniladi. Iste'molning maqsadli funksiyasi chegaralangan resurslar sharoitida iste'molning umumiy darajasini oshirish bilan alohida ehtiyojlarni qondirishni maksimumlashtirishdan tarkib topadi. Iste'mol ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining pirovard fazasi va ajralmas qismini aks etadi. Uy xo'jaliklarining pirovard iste'moli ishlab chiqarish iste'moli bilan o'zaro bog'liqlikda va ijtimoiy ishlab chiqarish bilan dialektik yagonalikda bo'ladi.

Iste'mol tarkibi - bu xarajat elementlari yoki natural iste'mol turlari, bevosita berilgan mahsulot turi uchun xarakterli bo'lgan birlikda yoki qiymat ko'rinishidagi o'zaro munosabatidan iborat. Xarajatlar tarkibiga esa aholi iste'moli madaniyatining muhim tavsifi hisoblanadi va unda aholining yashash qiymati bilan uy xo'jaliklarining moddiy pulli imkoniyatlari nisbati aks etadi.

Aholi daromadlarini va iste'molini tahlil qilishdagi asosiy birlik bo'lib uy xo'jaliklari olinadi. Makroiqtisodiy darajada uy xo'jaliklari sektori iste'molchilar guruhiga tegishli bo'ladi. Mikroiktisodiy darajada uy xo'jaliklari - bu aholi uchun iqtisodiy qarorlar qabul qiladigan darajadagi birlikdir. Aksariyat hollarda aholi

turmush darajasi haqida fikr yuritganda aholi jon boshiga iste'mol qilingan milliy daromad ko'rsatkichidan foydalaniladi. Iste'mol miqdori va tarkibi aholi turmush darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichdir.

Iste'mol darajasi, tarkibi va o'zgarnishi bilan tavsiflanib, iste'mol qiymati va natural ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Iste'mol zarur maxsulotlar va xizmatlarni sotib olish uchun ketadigan xarajatlar bilan bevosita bogliq va aksariyat hollarda ular yordamida baholanadi.

Aholi daromadlari va xarajatlari balansi xujjatlarida iste'mol xarajatlari aholi jamg'armalari bilan birgalikda daromadlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Jamg'armalarni tadqiq etish iste'molni tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Aholi iste'molini tadqiq etishda quyidagi iqtisodiy kategoriyalar mohiyatini yoritish lozim:

1. Uy xo'jaliklarining haqiqiy pirovard iste'moli (iste'molga ketadigan xarajatlarni to'liq tavsifi o'z ichiga iste'mol tovar va xizmatlarni sotib olishga ketgan xarajatlarni, shuningdek, uy xo'jaliklarining davlat boshqaruv organlaridan va notijorat tashkilotlaridan tekinga naturadagi ijtimoiy transfert ko'rinishida olingan tovar va xizmatlarning qiymatidan iborat.

2. Uy xo'jaliklarining pirovard iste'moliga xarajatlar. Iste'molda tovarlar va xizmatlarni sotib olishga ketadigan xarajatlar, shuningdek, o'zi uchun ishlab chiqarilgan natural shakldagi shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridagi qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda turli ko'rinishdagi yordam va ish haqi sifatida olingan tovar va xizmatlar iste'molidan iborat.

Aholini pullik xarajatlari va jamg'armalari tarkibiga tovar va xizmatlarni sotib olishga ketadigan xarajatlar, majburiy to'lovlar va turli soliq, yig'imlar, sug'urta bo'yicha to'lovlar, tovar krediti uchun foizlar, xorijiy valyutani sotib olish, qo'yilmalardagi va rasmiy qog'ozlardagi jamg'armalarning o'sishi kiradi.

Ushbu jamg'arishning maqsadi to'y qilish, imorat qurish, o'limlik uchun pul yigish va boshqa omillarga bog'liq. Aholi xarajatlari dastlab oziq-ovqat, kiyim - kechak, turar-joy, transport va boshqalarga sarflanadi.

Jahon amaliyotida turmush darajani umumlashtiruvchi indikatorlaridan biri sifatida oila byudjetidagi oziq-ovqat xarajatlari ulushi foydalaniladi. AQShda iste'mol savatini hisoblashda uy xo'jaliklarining umumiy xarajatidan 1/3 hajmda oziq-ovqatga xarajatlar ulushi kiritiladi. Ammo, shuni nazarda tutish kerakki, o'rtacha Amerika oilasida oziq-ovqatga haqiqiy xarajatlar hamma iste'mol xarajatlarining 15% idan oshmaydi. Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida oziq-ovqatga xarajatlar 16-20%ni tashkil qiladi.

Iste'molning umumiy hajmida uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar ulushining yuqoriligi aholining turmush darajasi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. Respublikamizda aholi xarajatlari tarkibi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (2.3- jadval).

2.3-jadval

O'zbekiston aholisining pul xarajatlari tarkibi

(pul daromadlarga nisbatan % da)

Yillar	Aholining pul daromadlari	Iste'mol xarajatlari	Majburiy to'lovlar	Banklarga qo'yilgan pullar, sotib olingan qimmatli qog'ozlar va valyutalar	Naqd pul qoldigi
2005	100	85,5	8,4	2,2	3,9
2006	100	85,2	9,1	2,7	2,9
2007	100	82,4	7,5	8,6	1,5
2008	100	78,7	7,8	9,2	4,3
2009	100	77,1	7,7	14,2	1,0
2010	100	73,1	7,7	17,2	2,0
2011	100	73,6	6,9	17,3	2,2
2012	100	73,5	6,7	18,0	1,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.

2.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2001-2008 yillarda aholi pul daromadlarining o'sishi aholi xarajatlari tarkibidagi ijobiy xarajatlari ulushi 2001 yilda 85,5% dan 2008 yildagi 73,5%ga pasaydi va aholining banklardagi

qo'yilmalari va qimmatli qog'ozlarni sotib olish ko'rinishidagi jamg'armalari 2001 yilda 2,2%dan 2008 yil 18,0%ga o'sdi. Aholi pul daromadlaridagi iste'mol xarajatlarining pasayishi bu ijobiy holatdir. Agar aholining iste'mol xarajatlari oshib borsa, bu mamlakatda aholining turmush darajasi pasayayotganligidan, aholi daromadlarining aksariyat qismi eng zarur kundalik ehtiyoj mahsulotlari sotib olishga sarflanayotganligini bildiradi. Buni Rossiya bilan taqqoslaydigan bo'lsak, iste'mol xarajatlari ulushi 2006 yilda 73,2%, 2007 yilda 69,1%, 2010 yilda 70,2% ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Rossiyada aholi iste'mol xarajatlari ulushi O'zbekistondan pasaygan.

Mamlakatimizda barqarorlikka erishilishi tufayli iqtisodiyotni erkinlashish bosqichida iste'mol tarkibida ijobiy siljish yuz berayotgani ham aks etgan. Kishilarning joriy xarajatlari ayrim holatlarda ishlab chiqargan daromadlardan ko'p bo'lishi ham mumkin, u holda ilgari ishlab topilgan daromadlar sarflanishi yoki qarz olib ishlatilishi mumkin.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, aholi iste'mol darajasiga va tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarga quiddagilarni kiritish mumkin: aholi daromadlar darajasi; iqtisodiy rivojlanish darajasi, mamlakat milliy boyligi hajmi; YaIM dagi aholining pirovard iste'moli ulushi; aholining demografik tarkibi; mol-mulk bilan ta'minlanganlik darajasi; tabiiy iqlim sharoitlari, ijtimoiy infratuzilmani rivojlanish darajasi..

Ta'kidlash lozimki, respublika va uning hududlarida aholi pul daromadlari va xarajatlari dinamikasida o'zgarishlar yuz bermoqda (2.4-jadval).

Aholi turmush darajasini aholi jamg'armasiga qarab ham bilish mumkin. Aholi turmush darajasi yuqori bo'lsa xonadon daromadining kattagina qismi tirikchilikdan ortib qoladi va jamg'arma hosil etadi. Farovonlik haqida aholining xizmatlar uchun qilgan sarfining kattaligi xam belgilaydi, chunki turmush darajasi yuksalgan sharoitida xizmatlar iste'mol etiladi. Aholi turmush darajasiga baho berilganda natural iste'molni ham nazarda tutish kerak. Agar u katta bo'lsa,

turmush natural iste'molni ham nazarda tutish kerak. Agar u katta bo'lsa, turmush darajasi past bo'lgani holda ham, oziq-ovqat sarfi hissassi kichik bo'lishi mumkin.

2.4-jadval

O'zbekiston hududlarida pul daromadlari va xarajatlari dinamikasi, %*

Hududlar	Pul daromadlari		Pul xarajatlari		Daromadlarning xarajatlarga nisbatan farqi	
	2004 y	2012 y	2004 y	2012 y	2004 y	2012 y
O'zbekiston	100,0	100,0	96,1	98,2	3,9	1,8
Qoraqalpog'iston viloyatlar:	3,8	3,45	3,0	2,6	0,8	0,85
Andijon	10,4	7,37	10,5	7,1	-0,1	0,27
Buxoro	5,5	5,89	5,1	5,05	0,4	0,84
Jizzax	2,2	2,39	2,1	1,99	0,4	0,4
Qashqadaryo	6,8	6,39	5,8	4,97	1,0	1,42
Navoiy	3,8	4,97	2,8	3,37	1,0	1,6
Namangan	5,5	5,6	5,4	5,03	0,1	0,57
Samarqand	7,7	7,3	7,5	6,75	0,2	0,55
Surxondaryo	4,9	5,48	4,0	4,55	0,4	0,43
Sirdaryo	1,9	1,96	1,7	1,69	0,2	0,27
Toshkent	9,2	9,05	9,6	8,56	-0,4	0,49
Farg'ona	10,9	8,65	11,1	8,2	-0,2	0,45
Xorazm	4,2	3,93	3,7	3,8	0,5	0,13
Toshkent sh.	22,7	27,9	27,6	34,4	-4,9	-6,91

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Aholi iste'molining muhim tavsiflaridan biri iste'mol byudjeti xisoblanadi. Iste'mol byudjeti nazariy jihatdan olib qaralganda iste'molning etalon me'yoridan kelib chiqib quriladi. Bu minimal yoki rasional iste'mol byudjeti bo'lib, aholini turli daromadlilik va ijtimoiy demografik guruhlarining yuqori va quyi turmush darajasiga muvofiq keluvchi tushunchalardir. Amaliyotda aniq uy xo'jaliklarini iste'mol byudjeti ko'rib chiqiladi.

Odatdagi sharoitda insonlarning iste'moli oilaviy byudjetda mablag'larning cheklanganligi bois yetishmaydi. Oila byudjetida cheklangan chegaradan o'tishga harakat qilish inson mehnat faoliyatidagi muhim motiv hisoblanadi. Iste'molchilar

oldida cheklangan byudjetni taqsimlash jarayonida ikki vazifa turadi: a) iste'mol va jamg'arish o'rtasida; b) turli xil tovarlarning turlari bilan xohish istaklar o'rtasida.

Iste'mol xarajatlari tarkibida aholining oziq-ovqat xarajatlari (2004 yilda 56,9%dan 2012 yil 53,7%ga) qisqardi. Nooziq-ovqat xarajatlari (2004 yilda 23,7% dan 2012 yil 25,3%ga) va xizmatlar (2004 yilda 12,8%dan 2012 yil 16,1%ga) xarajatlari xam oshdi. Bu tendensiya bir tomondan yaxshi, ammo boshqa tomondan olib qaralganda aholi o'zining joriy daromadlarini inflyasiyadan saqlab qolish uchun banklarga nisbatan pul jamgarmalarni ko'proq qo'zg'almas mulklarga, tovarlarni sotib olishga pul mablag'larini joylashtirishni ishonchli deb qaramoqdalar. Bu so'zsiz aholini xarid qilish tarkibida o'z aksini topgan. Iste'molchilarning aksariyat qismi to'lov qobiliyati yuqori emasligini hisobga olib, umuman aholining o'rtacha zarur bo'lgan nooziq-ovqat tovarlari (kiyim-kechak va h.)ni harid qilish bilan bog'liq.

Jahonda agar iste'mol xarajatlardagi oziq-ovqatlar xarajatlari ulushi 50% dan yuqori bo'lsa, bu mamlakat kambag'al hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida aholi pul xarajatlari tarkibida respublikada ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotganini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy muvozanat nazariyasi nuqtai nazaridan, ya'ni talab va taklifning muvozanatlashuvida narxlarning o'zgarishi hisobiga ro'y beradi. Ushbu holat kam daromadli aholining iste'moli qisqarishiga, iste'mol tarkibining deformasiyalashuviga va bozorda arzon assortimentdagi tovarlar sotilishining ko'payishiga olib keladi. Ushbu holat narxlarni boshqarish siyosatini tartibga solishda juda ehtiyotkorlik bilan egiluvchanlik chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo etadi.

Aholi iste'mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat ulushining xajmiga ta'sir ko'rsatuvchi qator korrelyasion bog'liqliklar mavjud:

– oziq-ovqat harajatlari hajmi bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori o'rtasidagi bog'liqlik;

– aholi jon boshiga sarflanadigan harajatlarda oziq-ovqat miqdori bilan boshiga to'g'ri keladigan daromadlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik;

– pul daromadlaridagi jon boshi hisobiga oziq-ovqat harajatlari bilan shaxsiy tomorqa xo'jaligidan tushumlar o'rtasidagi bog'liqlik;

– aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadda oziq-ovqat xarajatlari ulushi, oila hajmi, bolalar ulushi va ayollar ulushi o'rtasidagi bog'liqlik.

Aholi iste'mol xulkiga bevosita daromadlar darajasi, narxlar va iste'mol bozorining holati ta'sir ko'rsatadi. Bozorning to'yinganligi, tovar aylanmasi, tovar va xizmatlarning ulgurji narxleri ishlab chiqarishning samaradorligi va ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bilan aniqlanadi. Iste'mol bozorining to'yinishini import qilinadigan iste'mol tovarlari ham ta'minlaydi.

2.5-jadval

Samarqand viloyatida uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari tarkibi, %*

Ko'rsatkichlar	2008 y	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y
Iste'mol xarajatlari, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shundan: oziq-ovqat xarajatlari	57,5	58,1	54,4	53,7	52,9
Shu jumladan:					
Non va non mahsulotlari	16,6	16,8	17,8	16,3	17,0
Kartoshka, sabzavot va mevalar	9,0	9,3	8,3	9,4	8,8
Go'sht va go'sht mahsulotlari	12,6	12,8	12,0	12,5	11,8
Sut va sut mahsulotlari, tuxum	3,9	4,1	3,7	3,6	3,7
O'simlik yog'i va boshqa yog'lar	8,0	8,1	6,2	5,1	5,6
Qand va qandolat mahsulotlari	4,8	5,0	4,3	4,8	4,3
Boshqa oziq-ovqatlar	2,6	2,0	2,1	2,0	1,7
Uydan tashqarida ovqatlanish xarajatlari	4,1	3,5	3,2	3,2	3,2
Alkagol ichimliklarni sotib olish xarajatlari	0,7	0,5	0,5	0,4	0,4
Nooziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari	23,1	20,6	25,8	26,6	26,3
Xizmatlar uchun to'lanadigan xarajatlar	14,6	15,4	10,4	11,5	17,2

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2.5-jadvaldan ko'rinib turganidek, O'zbekiston Respublikasida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan xarajatlari kamaygan, aksincha nooziq-ovqat

xarajatlariga bo'lgan xarajatlari ortgan. Iste'mol tarkibidagi tovarlar nomenklaturasidagi chuqur o'zgarishlar – iste'mol sohasida bir-biriga o'xshash, ammo narxlarda farq qiluvchi o'rinbosar tovarlarning mavjudligi hisobiga ro'y beradi. Masalan, sariyog' va o'simlik yog'i, tabiiy sut va kukunli sut, go'sht va baliq mahsulotlari. Aholi daromadlarining kamayishi natijasida o'rinbosar oziq-ovqat mahsulotlarining eng arzon ko'proq sotib olinadi. Arzon bo'lgani uchun oqsilga boy bo'lmagan mahsulotlarga talab katta bo'ladi. Iste'mol tarkibidagi non va kartoshkaga ketadigan xarajatlar ulushini boshqalarga nisbatan yuqori bo'lishi yuqoridagi sabablar bilan tushuniladi. Daromadlarning o'sishi bilan zaruriy ne'matlarni iste'mol qilish ham oshadi, ularning iste'mol byudjetidagi ulushi kamayadi. Nooziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish jadal sur'atlarda o'sadi, to'yingandan so'ng sekinlashadi. Daromadlarning ortishi bilan uchinchi guruhdagi tovar va xizmatlar (uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar, qimmatbaho buyumlar, dam olish va ko'ngil ochar muassasalarga xarajatlar) iste'moli barqaror sur'atlarda uzluksiz oshib boradi.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta'mirlash va yangi zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etish orqali tartibga solish mumkin. Dotasiyalar, subsidiyalar va kreditlarni agrosanoat majmuidagi korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayt aqrolltirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnatfaoliyatini rivojlantirish yo'li bilan ximat ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar. Mehnatga layoqatli pensionerlar, nogironlar, o'smirlar va boshqalarga mos ish joylarini vujuga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurrslarini yuqorida aytib o'tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy va malaka tarkibiga bevosita ta'sir o'tkazish mumkin.

2.6-jadval

2012 yil davomida Samarqand viloyatida yaratilgan yangi ish o‘rinlari

Tuman	Ish o‘rinlarini tashkil etish		
	Dastur	Amalda	%
Samarqand sh	13 417	13454	100,3
Kattaqo‘rg‘on sh	2 300	2310	100,4
Oqdaryo	4 200	4228	100,7
Bulung‘ur	5 500	5510	100,2
Jomboy	4 350	4358	100,2
Ishtixon	5 850	5880	100,5
Kattaqo‘rg‘on	5 590	5606	100,3
Qo‘shrabod	3 700	3715	100,4
Narpay	5 350	5370	100,4
Payariq	6 300	6358	100,9
Paxtachi	4 650	4652	100,0
Pastdarg‘om	6 050	6099	100,8
Samarqand	7 350	7376	100,4
Nurobod	4 350	4401	101,2
Urgut	9 850	9887	100,4
Tayloq	4 620	4639	100,4
JAMI	93 427	93843	100,4

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.6-jadval ma’lumotlari tahlil qilinganda, 2012 yil davomida Samarqand viloyati bo‘yicha jami “Aholini ish bilan bandligini ta’minlash Dasturi”ga muvofiq jami 93427 ta yangi ish o‘rinlari barpo etilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, amalda esa 93843 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Yangi yaratilgan ish o‘rinlari Dasturga nisbatan 100,4 %ga ortiq yaratilgan. Viloyatda yaratilgan yangi ish o‘rinlarining eng ko‘ ulushi Nurobod (101,2 %), Payariq (100,9 %), Pastdarg‘om (100,8 %) hamda Oqdaryo (100,7 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi (2.5-jadval).

Aholi iste’molini qondirishni ijtimoiy-iqtisodiy tahlilining muhim jihatlaridan biri daromadlar darajasining iste’mol tarkibini tabaqalanishiga ta’sirini tadqiq etishdir.

Daromadlar ortishi bilan iste'mol tarkibida oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlar ulushi qisqaradi, uy-joy va kiyim-kechaklar uchun xarajatlar o'zgarmaydi, ta'lim va davolash xarajatlari esa oshadi (Engel qonuni).

Iqtisodiyotda Keynes ta'biricha, asosiy psixologik qonun amal qiladi. Daromadlar past bo'lganda iste'molga moyillik kuchli bo'lib, topilgan daromad sarflanib ketadi. Daromad o'sishi bilan odamlarda ko'proq iste'molga emas, balki jamg'arishga moyillik kuchayadi. Daromadlarni sarflash va jamg'arishga moyillik kishilarning yosh tarkibi va boshqa omillarga ham bog'liq. Umuman olganda, pul ishlab topishga nisbatan uni samarali oqilona sarflash qiyin ish hisoblanadi.

Iste'mol savatini aniqlashning qator usullari mavjud bo'lib, bu minimal iste'mol me'yorlari bilan o'lchanadi. Me'yoriy yondashuvlar kishining yoshi, jinsi, kasbi bilan bog'liq ravishda kishi organizmini takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan oqsillar, vitaminlar, uglevodlar va boshqalar orqali xarakterlanadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol haqiqiy bir sutkalik kalloriyasi Shvesiyada - 3160 kkal, AQShda - 3642 kkal, Rossiyada 2704 kkal tashkil qildi. Rossiyada minimal iste'mol savatiga kiritilgan oziq-ovqatlar energetik qiymati ishga qobiliyatli erkaklar uchun 2720,4 kkal, ishga qobiliyatli yoshidagi ayollar uchun 2138,4 kkal, pensionerlar uchun 1976,6 kkal, 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 1581,6 kkal, balog'at yoshidagilar 7-15 yoshgacha 2385,6, o'rtacha yoshdagilar 2236,7 kkal ni tashkil qiladi. Mamlakatimizda jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun 3300-4200 kkal, jismoniy va aqliy faoliyatni nisbatan birga olib boruvchilar uchun 2800-4200 kkal, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun 2500-3000 kkal ozuqa talab qilinadi. Bu normalar tibbiyot nuqtai nazaridan hisoblab chiqilgan. Bir sutkada 1000 kkal dan past oziq-ovqat iste'mol qiluvchi kishilar o'zlarining sarflagan mehnat qobiliyatlarini tiklash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Iste'mol savatini hisoblashning ayrim usullari qo'llanilganda hayotiy zarur oziq-ovqat mahsulotlari hisoblab chiqiladi va unga mos ravishda nooziq-ovqat

mahsulotlari xizmat turlari sarfi qo'shiladi. Bu usul statistik taqqoslashga asoslanadi, ya'ni oziq-ovqat iste'moli bilan xizmatlar iste'moli teng qilib olinadi. Oziq-ovqat mahsulotlari minimumini hisoblash xizmat turlari iste'molini aniqlashga nisbatan osonroq bo'ladi. Masalaning murakkabligi shundaki, xizmat turlari miqdoriy me'yorga ega emas.

Yuqorida keltirilgan aholini yashash minimumini aniqlashning normativ va statistik usullarini qo'llash ko'p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Yuqoridagi usullar har biri o'zining ijobiy na salbiy tomonlariga ega. Masalan, normativ usulda kishi organizmi uchun zarur bo'lgan ozuqa komponentlari iste'molini real iqtisodiy darajala amalga oshirib bo'lmaydi. Statistik usulda esa, oziq-ovqat va xizmat turlari nisbatini belgilashda sun'iy yondashuv kuzatiladi. Bu usullar yordamida qam axoli yashash minimumini aniqlanishi mumkin, lekin ular real iqtisodiy holat va rivojlanganlik darajasidan ancha yiroq bo'lib qoladi.

Yashash minimumi kategoriyasini iste'mol savati bilan bir xil deb qarash kerak emas. Bunda minimal iste'mol me'yorlari nisbatan hisobga olinsada, mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi asosiy mezon qilib olinishi zarur.

Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda yashash minimumini hisoblash maqsadga muvofikdir. Chunki mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi milliy ishlab chiqarish tarkibi va ko'lamiga mos ravishda iste'mol ne'matlarini qay darajada yaratilayotganligini ko'rsatadi. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga muvofiq aholi turmush farovonligiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan yashash minimumini aniqlash axolining eng minimal darajadagi iste'molni real belgilash imkonini beradi. Ushbu holatda nafaqat pul ko'rsatkichlari, shu bilan birga natural tushumlar ham hisobga olinadi.

Oilalardagi tafovutlarni bartaraf qilish uchun «Iste'mol ekvivalenti koeffitsiyenti» (Oksford shkalasi)dan foydalaniladi. Unda xar bir oila uchun iste'mol o'lchov birligi aniqlanadi. Oiladagi birinchi odam 1 iste'mol koeffitsiyentiga ega bo'ladi. Ikkinchi va undan keyingi odamlar 0,7, oiladagi har bir

bola 0,5 iste'mol koeffitsiyentiga ega bo'ladi. Demak, to'rt kishidan iborat oilada er - 1, xotini - 0,7, bola -0,5, bola -0,5 jami -2.7 birlik iste'mol.

Yashash minimumi xonadon a'zolari minimal tirikligini ta'minlab urish imkoniga ega bo'lish kerak. Minimal miqdor hisobidan kelib chiqqan holda eng kam ish haqi darajasini belgilash maqsadga muvofiqdir. Agarda minimal ish haqi yashash minimumi darajasidan past bo'lsa, subyektlarning daromad topish imkoniyatlari chegaralanib, ularning iqtisodiy manfaati va faollikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, kambag'allikning chuqurlashib borishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun minimal daromad miqdorining eng quyi chegarasi daromad topish uchun iqtisodiy sharoit hozirlab berishi kerak. Aks holda daromadni o'stirishga to'sqinlik qiladi. Respublika bo'yicha minimal ish haqi 2011 yilda noyabr oyidan boshlab 49735 so'm, 2012 yil aprel oyidan 79590 so'm miqdorida belgilangan. Bu esa, yashash minimumi darajasidan past miqdorni tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan yashash minimumi summasiga asoslanib, xonadon a'zolari soniga nisbatan eng kam iste'mol byudjetini hisoblab chiqish mumkin. Chunki, O'zbekistonda xonadon tarkibi, undagi mehnat qiluvchi va boqimandalar nisbati hamda xonadon a'zolari soni farq qiladi. Xonadon azolari soniga nisbatan yashash minimumini aniqlashda ishlovchilar va boqimandalar nisbatiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Bu ko'rsatkich boqimanda to'g'ri keladi. Yashash minimumini xonadon a'zolari soniga nisbatan aniqlash usulini quyidagi jadvalda keltiramiz.

Xonadon a'zolari soniga nisbatan yashash minimumini aniqlashdan maqsad, har bir xonadon o'zining minimal iste'molini qondirish uchun kamida qancha mablag' talab etilishini bilishi ko'zda tutilgan. Taklif etilgan usulning muhim jihat, bir tomondan xonadonning iste'mol mo'ljalini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan davlat tomonidan daromadlarning minimal miqdorini belgilashda real vaziyatni to'g'ri baholash imkonini beradi.

Xonadon xarajatlar tarkibida oziq-ovqat mahsulotlariga ketadigan sarflar birlamchi ahamiyatga egadir. O'zbekistonda eng kam darajadan past daromadli

xonadonlarda xonadon daromadining 60-90%, o'rta daromadli xonadonlarda 42%, yuqori daromadli xonadonlarda 33-36% oziq-ovqatga sarflanadi. Bu kursatkich AQShda 25,4%ni, G'arbiy Yevropada 20%ni, Yaponiyada 25-30% ni tashkil etgani holda pasayib borish tendensiyasiga ega. Aholi daromadlari xonadonning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini, tadbirkorlik faolligini, bilim, turmush darajasini, investision salohiyati va boshqalarni ifoda etadi. O'zbekistonda aholi pul daromadlarining o'sishi narx-navoning ko'tarilishini 1/3 ni qoplaydi. Baholarning pul daromadlari bilan mos kelmasligi oqibatida O'zbekiston aholisi aksariyat qismining iste'moli minimal chegara bo'sag'asida turibdi.

II-БОБ бўйича хулоса

1. Aholi daromadlari iqtisodiy kategoriya sifatida bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat o'rtasida, ikkinchi tomondan, uy xo'jaliklari va individlar o'rtasida yangidan yaratilgan qiymat qismini o'zlashtirish, taqsimlash va qayta taqsimlash borasida yuzaga keluvchi umumiy munosabatlarni ko'rsatadi.

2. bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

- ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi.

3. Tahlillarimiz ko'rsatishicha, aholi iste'mol darajasiga va tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarga quidagilarni kiritish mumkin: aholi daromadlar darajasi; iqtisodiy rivojlanish darajasi, mamlakat milliy boyligi hajmi; YaIM dagi aholining pirovard iste'moli ulushi; aholining demografik tarkibi; mol-mulk bilan

ta'minlanganlik darajasi; tabiiy iqlim sharoitlari, ijtimoiy infratuzilmani rivojlanish darajasi..

4. Aholi iste'mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat ulushining xajmiga ta'sir ko'rsatuvchi qator korrelyasion bog'liqliklar mavjud:

- oziq-ovqat harajatlari hajmi bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori o'rtasidagi bog'liqlik;

- aholi jon boshiga sarflanadigan harajatlarda oziq-ovqat miqdori bilan boshiga to'g'ri keladigan daromadlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik;

- pul daromadlaridagi jon boshi hisobiga oziq-ovqat harajatlari bilan shaxsiy tomorqa xo'jaligidan tushumlar o'rtasidagi bog'liqlik;

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadda oziq-ovqat xarajatlari ulushi, oila hajmi, bolalar ulushi va ayollar ulushi o'rtasidagi bog'liqlik.

III-BOB. IQTISODIY INQIROZ SHAROITIDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish mexanizmini shakllantirish

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida aholining turmush darajasini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'rnini katta. O'zbekiston Respublikasida borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'minlanib, aholining turmush darajasi oshib bormoqda.

Bu borada respublika Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan: "...turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rnini va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir"⁴.

Ta'kidlash lozimki, bozor infratuzilmasi aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Agar biror hududda bunday infratuzilma rivojlanmagan bo'lsa, tadbirkorlik ham rivojlanmaydi, aholining turmush darajasi ham oshmaydi. Demak, har bir hududda bozor infratuzilmasini rivojlantirish lozim. Shuning uchun, nazarimizda, har bir hududda bozor infratuzilmasi rivojlantirish lozim.

Buning uchun quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:


1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishlab chiqarish infratuzilmasini ustuvor rivojlantirishni amalga oshirish. Bunda asosiy e'tibor meliorasiya, gidrotexnika, elektr energiya inshootlari va tarmoqlarini rivojlantirishga, yerlarni sug'orishga, sanoatning qayta ishlovchi korxonalarini qurish va texnika bilan qayta uskunalashga qaratilishi, muhandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari: vodoprovodlar, kanalizasiya tizimi va

⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 41 b.

inshootlari, gaz va elektr ta'minoti tarmoqlari, yo'llar, telekommunikasiya tizimlari ustuvor bo'lishi lozim.

2. Bozor infratuzilmasini tashkil etish va uni jadal yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti talablariga moslashtirish maqsadida shaharda bozor qayta o'zgartirishlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga, uni rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirishga da'vat etilgan "Tadbirkorlik departamentlari" faoliyati takomillashtirilishi lozim.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha bank va ularning filiallarida tadbirkorlarga yaqindan maslahatlar berish bo'yicha "Tadbirkorlar xonasi" tashkil etildi. Shuningdek, filiallar va mini banklarda tashkil etilgan "Tadbirkorlar burchagi" orqali respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, taklif etilayotgan yangi bank xizmatlari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib borilishi yo'lga qo'yildi.



3.1-rasm. Samarqand viloyatida 2008-2012 yillarda kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar (mln.so'm)

Samarqand viloyatida 2008-2012 yillarda kichik biznes sub'eklariga ajratilgan kreditlar miqdori 3,7 martaga oshib, joriy yilda bu ko'rsatkich 441681,3 mln. so'mni tashkil etdi (3.1-jadval).

Xususiy tadbirkor va kichik biznes korxonalariga kreditlar berish investision loyihalarning mablag' bilan ta'minlashiga, ularning nizom sarmoyalarida ishtirok etishiga, maslahat va axborot xizmatlari shaklida texnik yordam ko'rsatishni amalga oshiruvchi hududiy tarmoqlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik va xususiy korxonalarga resurs ta'minotida, mahsulotni sotish va transport xizmatini ko'rsatishda yordam beradigan, mahsulotni saqlash, qayta ishlash va sotishni amalga oshiradigan, aholiga kommunal, maishiy, ta'mirlash-qurilish xizmatlari ko'rsatadigan, fermer, dehqon xo'jaliklari a'zolari, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar egalarini o'qitadigan, axborot ta'minoti va yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatadigan "Biznes markazlar" tashkil etilishi lozim.

Xususiy qo'yilmalarga asoslangan, ilg'or texnologik asbob-uskunalar, xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, butlovchi buyumlarni sotib olish uchun mablag'larni, birinchi navbatda, maqsadli ayirboshlash huquqiga ega bo'lgan agroinvestisiya firmalari tashkil etilishi, shartnomalar "Tashqi iqtisodiy aloqalar" vazirligi organlarida ruxsat beruvchi tartiblarsiz ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Faoliyat turlari bo'yicha mayda ishlab chiqaruvchilarning uyushmalarini tashkil etishga yordam berish, bu uyushmalar o'z manfaatlarini jamoa yo'li bilan himoya qilishi, xo'jalik yuritishning ilg'or usullarini yoyishi lozim.

Kredit muassasalari rivojlangan hududda ish bilan bandlik hajmi ham ortadi. Ayniqsa, ixtisoslashgan kredit muassasalari tarmoqlararo ish bilan bandlik tarkibining takomillashishiga xizmat qiladi. Bizningcha, kredit muassasalarini rivojlantirish, ixtisoslashgan tijorat banklari tarmog'ini, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida investisiya faoliyatini amalga oshirish uchun xorijiy sarmoya ishtirok etgan tijorat banklari tarmog'ini kengaytirishni davom ettirish, savdo uylari, investisiya kompaniyalari, investisiya vositachilari, fond do'konlari, kliring va agentlik tarmoqlari faoliyatini kengaytirish lozim hamda kichik va xususiy korxonalarni axborot bilan ta'minlashda, bozor kon'yunkturasini o'rganayotgan,

bozor imkoniyatlariga axborot xizmati ko'rsatishni taklif etayotgan xususiy korxonalar ishida, tarmoqlararo ma'lumotlar bankini yaratishda yordam berish darkor.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish chog'ida ijtimoiy sohani rivojlantirishga investisiyalar ulushini, shu jumladan, xorijiy investisiyalarni jalb qilish, ijtimoiy soha obyektlarini aholi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatni tashkil etish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berish yo'li bilan ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish lozim, chunki ijtimoiy sohaning rivojlanishi xizmat sohasidagi ish bilan bandlik darajasining oshishiga olib keladi va ish bilan bandlik tarkibini takomillashtiradi.

Tadbirkorlik muhitini yaratish orqali aholining turmush darajasini oshirishda bilim va mehnatni ko'p talab qiladigan xizmat sohasini jadal rivojlantirish, ijtimoiy-ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish, ekologiya talablarini ta'minlash, shuningdek, aholining zarur harakatchanligini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini yaratish muhim rol o'ynaydi.

Aksiyalarning opsiyon paketlarini sotish tizimining qo'llanilishi va aksiyalarni xususiy investorlarga sotish kvotalarining belgilanishi aholi turmush darajasini oshishiga olib keladi. Davlat mulkini xususiy mulk qilib sotish, kim ochdi savdolari va tanlovlar orqali davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirish usullarini keng rivojlantirish, xususiylashtirilayotgan savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, turar-joy obyektlari joylashgan yer maydonlarini sotishni davom ettirish lozim, chunki mulkchilik bo'yicha ish bilan bandlik tarkibi hali kerakli darajada takomillashmagan.

Ilmiy-texnika va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash, standartlar va mahsulotlar sifati sohasidagi tartibga solishlar yo'li bilan kichik biznes va xususiy korxonalar tomoidan ishlab chiqariladigan tovarlarning raqobatga bardoshlilikini oshirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish lozim. Bulardan tashqari, kichik va xususiy korxonalarni jadal texnik qayta jihozlashni rag'batlantirish, texnologik inkubatorlar, qayta ishlovchi va mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar namunaviy loyihalarini yaratish, ularni keng joriy qilish va yangi texnologiyalar sharoitlarida

yo'nalish bo'yicha o'qitishni tashkil etish, keyinchalik kichik va xususiy tadbirkorlarga sotish uchun tamoman yangi mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi lisenziyalarini sotib olishni amalga oshirish lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun foydalanilmayotgan binolarni belgilangan tartibda ijaraga berish, tugallanmagan qurilishning ishlab chiqarish obyektlari va foydalanilmayotgan asbob-uskunalarini kim ochdi savdolari va tanlovlar orqali sotish lozim. Davlat mulki obyektlarini mahalliy aholiga tegishli bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ustuvor berish maqsadida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish chog'ida davlat mulkini sotish bo'yicha yopiq tanlovlarni o'tkazish kerak. To'xtatib qo'yilgan va foydalanilayotgan asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini, shuningdek, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini kichik va xususiy tadbirkorlarga sotishni tashkil etish lozim.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish dinamikasining tahlili qayta ishlash sanoati, jumladan oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishning rasionalligi shundaki, asosan mehnat resurslari ish bilan ko'proq ta'minlangan tumanlarda joylashgan xususiy korxonalar o'z kapitallarini asosan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratmoqda. Investisiyalarning bunday yo'naltirilishi nafaqat viloyat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda, balki Olmaliq shahrida aholi turmush darajasini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Aholining turmush darajasini oshirishda aholining ish bilan bandligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nazarimizda, ish bilan bandlikni takomillashtirish bo'yicha dasturlarning moliyaviy ta'minoti muammosi o'z yechimini topishi kerak. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham to'g'ridan-to'g'ri, ham bilvosita mablag' bilan ta'minlash yo'li bilan respublika va mahalliy byudjetlarning mablag'larini, jamoat jamg'armalari mablag'larini jalb etish, tijorat banklari tomonidan kredit investisiyasi berish, chet el va tadbirkorlik

sarmoyasini investisiya jarayoniga jalb etish, shuningdek, xususiy hayr-ehson va qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi lozim.

Ish bilan bandlik tarkibida kichik biznesning ulushini oshirish uchun kerakli mablag'larni jalb etish yo'llaridan biri davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdir. Ulush qo'shib qatnashish shartlarida va kredit berish shaklida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdan olingan mablag'lar ustun darajada infratuzilmasi, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ko'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Bundan tashqari, ish bilan bandlik tarkibida kichik biznesning rolini oshirish uchun imtiyozli kredit siyosatini olib borish maqsadga muvofiq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli shartlarda kredit beruvchi kredit tashkilotlari imtiyozlardan qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanishi darkor. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan banklarga to'lanadigan kreditlar to'lanmasligi tavakkalchiligini majburiy sug'urta qilish tizimi joriy etilishi kerak. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kreditlarni va kreditlardan foydalanganlik uchun foizlarni sug'urta shartnomasida belgilangan muddat davomida o'z vaqtida va to'liq to'lash xaqidagi javobgarligi sug'urta obyekti hisoblanadi.

Shunday qilib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bozor infratuzilmasini rivojlantirish aholi turmush farovonligini oshirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

3.2. Aholi turmush darajasini davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribasi va undan ijodiy foydalanish imkoniyatlari

Aholining turmush darajasi, ijtimoiy muhofazasi modeli deganda ijtimoiy ta'minot dasturlarining ishlashi va tashkil qilish tamoyillari tushuniladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning o'ziga xos modellari shakllangan. Masalan, rivojlangan mamlakatlardan AQSh va Yaponiya iqtisodiy rivojlangan neoliberal tizimiga asoslangan holda faoliyat yurgizadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari ustun darajada iqtisodiyotda ijtimoiy hamkorlik g'oyalarini amalga oshiradi. AQSh va Shvesiyani qiyosiy taqqoslaganda daromadlarni taqsimlashdagi muammolarni hal etishdagi yaxlitlik va farqlar ko'rinib turadi. Chunonchi, AQShda sog'liqni saqlash, ta'lim, transportga yalpi ichki mahsulotdan tegishli miqdorda xarajat sarflanishiga qaramasdan, jamiyatda individlar uchun davlat cheklangan javobgarlikni olib boradi. Mamlakatda kambag'allikka qarshi kurashish uchun davlat ishchi kuchini malakali o'qitish va qayta tayyorlash, aholining keng qatlamlarini ijtimoiy ta'minlashtizimi dasturlarini kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, nafaqalarni natural ko'rinishda, ya'ni bepul oziq-ovqatlar olish uchun talonlar, bepul tibbiyot va uy-joy uchun subsudiyalar berish bo'yicha maqsadli dasturlar qabul qilingan. Shvesiyada shaxsiy mulkni saqlagan holda daromadlarni keng qamrovli qayta taqsimlash konsepsiyasi amalga oshiriladi. Davlat aholining yuqori turmush darajasini ta'minlash uchun hamma uchun bir xil teng huquqni tadbiq etdi. Shuningdek, mamlakatda hamma uchun yagona sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim va pensiya darajasini ta'minlay oladigan maktabgacha bolalar ta'minoti mavjud. Ish haqi jamoa shartnoma asosida shakllanadi. Davlat bu jarayonda bilvosita – soliq va valyuta siyosati, mehnat resurslarini tartibga solish va narxlar ustidan nazorat qilish orqali ishtirok etadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning kontinental, anglosakson, skandinaviya va janubiy yevropa modellari shakllangan.

Kontinental model Germaniyada qo'llanilib, ijtimoiy himoya darajasi va uzoq kasbiy faoliyat o'rtasida kuchli aloqani belgilaydi. Uning asosida sug'urta qilingan badallar hisobiga moliyalashtiriladigan xizmatlar – ijtimoiy sug'urta yotadi. Bu modelning asosiy tamoyillari XIX asrning oxirlarida Germaniyada kansler Bismark tomonidan ijtimoiy qonunchilik ishlab chiqildi va u keyinchalik boshqa rivojlangan davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qildi. O'sha davrda tashkil qilingan ijtimoiy sug'urtaning uchta tarmog'i: keksalik va nogironlik bo'yicha sug'urta; ishlab chiqarishda baxtsiz hodisadan hamda kasallikdan sug'urta qilish hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Ushbu model Avstriya, Fransiya va Benilyuks mamlakatlariga ham tegishli.

Kontinental modelning bazaviy tamoyili – professional birdamlik bo'lib, u yollanma ishchilar va tadbirkorlar tomonidan boshqariladigan sug'urta fondlarining yashashini ta'minlaydi. Bu fondlar amaldagi ish haqidan ajratiladigan ijtimoiy ajratmalarni yig'adi. Bunday sug'urta tizimlari davlat byudjetidan moliyalashtirilmaydi, chunki byudjetning universallik tamoyili bunday ijtimoiy ta'minot modeliga teskaridir. Ammo, hozirgi zamonaviy sharoitda Yevropa mamlakatlari o'zlarining keng tarmoqli dasturlari bilan ijtimoiy davlatlarda himoyaning bunday modeli har doim ushbu tamoyilga asoslanmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy sug'urta to'lovlarini ololmaydigan jamiyatning kam ta'minlangan qatlami uchun birdamlik ijtimoiy yordam tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sug'urtaning majburiyligiga qaramasdan, Yevropa mamlakatlarida unga to'liq rioya qilinmaydi. Bu ish haqining yuqori darajaligi bilan bog'liq bo'lib, agar ish haqi darajasi oshiriladigan bo'lsa, sug'urtalarni ixtiyoriy yoki ajratmalarni limitlash, ya'ni ajratmalar ish haqining eng yuqori darajasida, ijtimoiy to'lovlar esa shu darajaga nisbatan hisoblanishi kerak bo'ladi.

Germaniyada ijtimoiy himoya tizimida markaziy o'rinni ijtimoiy sug'urta egallaydi. Davlatda G'arbiy Yevropa mamlakatlardagi kabi ijtimoiy sug'urta tizimi majburiy va xususiy tizimchalarga bo'linadi. O'z navbatida, ular quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: tibbiy, pensiya, nogironlik, ishsizlik, baxtsiz hodisa bo'yicha sug'urta. Ta'kidlash lozimki, Germaniyada ijtimoiy muhofaza tizimining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

– sug'urta tamoyili, ya'ni ko'rsatilayotgan yordamni moliyalashtirish individual badallarning miqdoriga yo'naltirilgan hajmdagi, sug'urta xizmatini ko'rsatish muddati kelganda sug'urta xizmatlarini oluvchi sug'urta birlashmalari a'zolari badallari hisobiga amalga oshiriladi. Ish haqining ma'lum bir qismini vzos ko'rinishida sug'urta jamg'armasiga kiritib, inson mablag'larini ijtimoiy badallarni to'lagan sharoitlarida olish huquqini amalga oshirishda, uning hajmi oldingi ish haqi miqdori bilan taqqoslanadi;

– ta’minot tamoyili. Ijtimoiy yordam oldin to’langan badallardan qat’iy nazar ko’rsatiladi va soliqlarning byudjetga tushumlari hisobiga moliyalashtiriladi. Ushbu tamoyil asosida ijtimoiy yordam oluvchilar vzos to’lamasdan davlat oldidagi alohida xizmatlari tufayli qo’lga kiritgan huquqlaridir. Byudjet mablag’lari hisobiga moliyalashtirish iqtisodiyotning samaradorligi va byudjetning holatiga bog’liq bo’lib, davlat moliyasiga og’irlik tushishi va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin;

– yordam ko’rsatish tamoyili. Ijtimoiy yordamni moliyaviy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan, o’zi mustaqil kambag’allik darajasidan chiqib keta olmaydigan nochor odam olishi mumkin. Ushbu tamoyil ijtimoiy ta’minot tamoyili kabi davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Demak, ijtimoiy yordam mamlakat byudjeti holatiga bog’liq va murakkab holatlarda ijtimoiy ta’minot darajasining pasayishiga olib keladi.

Germaniyada ijtimoiy sug’urta tizimi o’z-o’zini boshqarish tamoyili asosida amal qilib, ijtimoiy sug’urta muassasalari davlat boshqaruv institutlaridan huquqiy, moliyaviy va tashkiliy mustaqilligi bilan ajralib turadi. Davlat ijtimoiy himoya organlarining qonun asosida faoliyat ko’rsatishini kuzatadi, ularning moliyaviy va tijorat faoliyatlari ustidan nazorat qilish huquqiga ega. Mamlakatning ijtimoiy muhofaza tizimi uchun tashkilotlarning tarqoq bo’lishi xosdir, unda ijtimoiy sug’urtalar: pensiya ta’minoti, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa tufayli kasallik bo’yicha ta’minot alohida o’rin tutadi. Ishsizlik bo’yicha sug’urta ijtimoiy himoyaning umumiy tizimiga kirmaydi va aholi bandligi siyosati doirasida amal qiladi. Germaniyada majburiy ijtimoiy sug’urta yollangan ishchilar va ish beruvchilar tomonidan to’langan badallar, umumiy soliq tushumlari hisobiga moliyalashtiriladi. Ularning asosiy manbasi bo’lib yollangan ishchi va ish beruvchilarning turli shakldagi: tibbiy, pensiya va ishsizlik bo’yicha sug’urtalarga yo’naltirilgan badallari hisoblanadi. Agar ijtimoiy sug’urta tashkilotlaridagi moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelsa, u holda majburiyatni bajarishda davlat kafolat bo’lib, ijtimoiy himoya organining barqaror faoliyat ko’rsatishi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda yetakchi o’rin tutadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning anglosakson modeli Buyuk Britaniya va Irlandiyada qo'llaniladi. Bu model asosida iqtisodiy faol aholi bo'lishidan qat'iy nazar har bir inson o'zining mehnat qobiliyatini takror ishlab chiqarish minimal ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lish g'oyasi yotadi. Ushbu siyosat ijtimoiy to'lovlarning avval to'langan ajratmalarga bevosita bog'liqligi g'oyasiga ma'lum darajada zid keladi. Beveridj konsepsiyasiga muvofiq, insonning oziq-ovqat, uy-joy va tibbiy xizmatga bo'lgan minimal iste'molini qondirish uchun zarur bo'lgan daromadni kafolatlashdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning anglosakson modeli nemis modelidan ajralib turadi. Unda ijtimoiy ishlab chiqarish dinamikasi va bandlik kishining to'lov qobiliyati, ya'ni daromadlarning kam daromadli ijtimoiy guruhlar foydasiga qayta taqsimlanishi kerakligi bilan aniqlanadi. Bu model, birinchidan, hamma moddiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolarga ijtimoiy himoya tizimining keng qo'llanilishini, ikkinchidan, pensiya va nafaqalar hajmi bilan birgalikda ijtimoiy xizmatlar berilishini ta'minlaydi.

Anglosakson modelida mamlakatlar o'rtasida farqlar mavjud. Masalan, Angliyada bepul tibbiy xizmat daromadlar darajasidan qat'iy nazar mamlakatning barcha fuqarolariga, Irlandiyada esa faqat kam daromadli aholiga ko'rsatiladi. Bu modelning asosi adolatli taqsimlanish tamoyili emas, balki milliy birdamlik tamoyili tashkil etadi. Ijtimoiy himoyaning ushbu tizimini moliyalashtirish sug'urta badallari va umumiy soliqqa tortish orqali amalga oshiriladi. Oilaviy nafaqalar va sog'liqni saqlash tizimi davlat byudjeti hisobiga, boshqa ijtimoiy nafaqalar esa yollanma ishchilar va ish beruvchilarning sug'urta badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Bismark modelidan farqli o'laroq, ushbu model kichik to'lovlar va kuchli ijtimoiy himoyalangan ijtimoiy sug'urtani o'z ichiga oladi. nafaqalarni olish uchun daromadlarni tekshirish majburiy hisoblanadi.

Anglosakson modeliga kiruvchi Buyuk Britaniyada aholini ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ya'ni, birinchidan, keksalik, kasallik, ishsizlik, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa kabi ijtimoiy xatarlar aniq turlarining sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkiliy-rasmiy institutlarning

yo'qligi. Mamlakatda ijtimoiy sug'urtaning barcha dasturlari yagona tizimni tashkil qiladi. Ikkinchidan, ushbu tizim davlat korxonalarini ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi hamda xususiy sug'urta dasturlari bilan bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Buyuk Britaniyaning barcha aholisini qamrab oluvchi ijtimoiy himoyaning ixchamlashtirilgan tizimi quyidagi ikki yirik qismga bo'linadi:

- milliy ijtimoiy sug'urta (pensiya, nogironlik, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa bo'yicha sug'urta);
- milliy sog'liqni saqlash (barcha fuqarolarga, shuningdek, mamlakat hududida uzoq muddat yashovchi xorijlik fuqarolarga ham tibbiy xizmat ko'rsatish).

Birinchi turdagi dasturlar yollanma ishchilar va ish beruvchilarning sug'urta badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Ijtimoiy himoyaning ikkinchi qismi esa davlat mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan tibbiy ta'minot hisoblanadi. Mamlakatda sog'liqni saqlash bepul, biroq oxirgi o'n yillikda stomatologiya va oftalmologiya amaliyotda pullik xizmatlar ko'rinishida amalga oshirilmoqda.

Hozirgi milliy ijtimoiy sug'urta tizimida uchta muhim ijtimoiy dasturlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- avval qayd etilgan badallarning sug'urta sxemalari;
- badallarga asoslanmagan va nochorlikni tekshirish bilan bog'liq dasturlar;
- aholining aniq guruhlariga yo'naltirilgan, badallarga asoslanmagan ijtimoiy dasturlar.

Birinchi dasturda sug'urta sxemalariga Beveridj konsepsiyasiga asosan avval qayd etilgan badallar kiritilgan bo'lib, unda yollanma ishchilar, ish beruvchilarni va davlat dotasiyalari hisobiga shakllangan yagona sug'urta fondini tashkil qilish nazarda tutilgan. Ushbu jamg'armaning mablag'lari hisobiga pensiya va tibbiy sug'urta, kasallik va nogironlik bo'yicha nafaqalar moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urtaning Beveridj modeli Yevropa Ittifoqi mamlakatlardagidan farqli o'laroq ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar badallarning miqdoriga bog'liq bo'lmay

aksariyat sug'urta qilinganlar uchun juda past hisoblanadi. Buyuk Britaniyada ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish tarkiban sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urtadan iborat. Sog'liqni saqlash xarajatlarining 90 foizi davlat byudjetidan, ijtimoiy sug'urta esa yollanma ishchilar va tadbirkorlarning sug'urta badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Shuningdek, mamlakatda oilaviy nafaqalar, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisadan sug'urtalar umumiy soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi.

Shunday qilib, Buyuk Britaniya ijtimoiy himoya tizmining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u aniq sug'urta dasturlarini, ya'ni pensiya, tibbiyot sug'urtasi, nogironlik bo'yicha nafaqani ta'minlash uchun belgilangan alohida sug'urta badallarining mavjud bo'lishini nazarda tutmaydi. Ushbu dasturlarning xarajatlarini moliyalashtirish ijtimoiy sug'urta aniq tarmoqlarining ehtiyojlari uchun yo'naltiriladigan yagona ijtimoiy badallar hisobiga qoplanadi.

Ijtimoiy himoyaning skandinaviya modeli Daniya, Shvesiya, Norvegiya, Islandiya va Finlyandiya uchun xosdir. Mazkur modelda ijtimoiy xizmatlar olishning mazmuni shundaki, barcha fuqarolar soliqlar hisobiga moliyalashtirilgan ijtimoiy ta'minotdan teng foydalanish huquqiga ega. Boshqacha qilib aytganda, aholining ijtimoiy himoyasi – bu davlat tomonidan beriladigan xayriya emas, balki fuqarolarning qonuniy huquqi hisoblanadi. Davlat faqat ijtimoiy himoya tizimidan ajralib chiqqan ishsizlik bo'yicha sug'urtagina o'z xohishiga ko'ra amalga oshiriladi. Bu model o'zining universalligi, ya'ni aholining barcha qatlamini qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Skandinaviya modelining muhim farqli tomonlari turli ijtimoiy xatarlarni va jamiyatni qo'llashini talab qiladigan turli hayotiy holatlarni qamrab olishidir. Ijtimoiy xizmatlar mamlakatda yashovchi aholiga kafolatlanadi, ammo uning darajasi bandlik holati va sug'urta badallarini to'lash intizomi bilan belgilanmaydi. Umuman olganda, amal qilayotgan aholining ijtimoiy himoya darajasi juda yuqori hisoblanadi, bu esa, daromadlarni tenglashtirishga yo'naltirilgan faol qayta taqsimlash siyosati hisobiga erishiladi. Bu model ishlashining zaruriy shartlaridan biri jamiyatning farovonlik tamoyiliga asoslangan va yaxlit tashkil etilgan jamiyat

hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish soliqqa tortilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi, lekin bu modelda xususiy tadbirkorlar va yollanma ishchilarning sug'urta badallari ham muhim rol o'ynaydi. Ta'kidlash joizki, yaqin davrlarga qadar yollanma ishchilar sug'urta badallaridan ozod edilar va sug'urta jarayonida umumiy soliqlar orqali ishtirok etardilar. Ammo, XX asrning oxirida yollanma ishchilarning sug'urta dasturlarini va ish haqidan sug'urta ajratmalarini oshirishdagi ishtiroki ulushining keskin ortib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat asosan tadbirkorlarda kuzatilib, natijada davlatning ijtimoiy xarajatlari ulushi sezilarli darajada qisqarmoqda.

Shved ijtimoiy himoyasining asosiy tamoyili – bu uning universalligi, ya'ni aholining barcha qatlamini qamrab olganligidir. Ikkinchi muhim jihati esa Yevropa ijtimoiy iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan, Shvesiyada samarali amalga oshirilayotgan birdamlik tamoyili hisoblanadi. Uning mazmuni shundaki, barcha fuqarolar o'zining ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, daromadlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda ishtirok etadi. Ushbu tizimning asosiy unsuri davlat hisoblanib, ijtimoiy ne'matlarni aholining nochor qatlamlariga qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Bunday tizimning qimmatliligi (Shvesiyada soliqqa tortish darajasi dunyoda eng yuqori) aholi ijtimoiy himoyasining yuqori darajadaliigi, boy va kambag'allik o'rtasidagi keskin tafovutni kamaytirish orqali siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning Janubiy Yevropa modeli Italiya, Ispaniya, Gresiya va Portugaliya mamlakatlarida shakllangan. Ushbu model endi rivojlanayotgan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega emas hamda aholining ijtimoiy ta'minot darajasi past bo'lib, ijtimoiy himoya asosan qarindoshlar va oila a'zolari hisobidan amalga oshiriladi. Janubiy Yevropa modeliga kiruvchi Italiya ijtimoiy siyosatida 1992 yildan boshlab yangi davr boshlandi, ya'ni mamlakat xukumati ijtimoiy sug'urta sohasidagi islohotlarni pensiyani sug'urtalash tizimidan boshladi. Pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun 60 yoshdan 65 yoshga, ayollar uchun 55 yoshdan 60 yoshga uzaytirildi hamda sug'urta stajining minimal muddati 20 yil qilib belgilandi. Shu bilan birga, mamlakatning mehnat bozori va bandlik siyosatida bir

tomondan, ishchi kuchi bozori egiluvchanligini oshirish bilan va qisman bandlik uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish, ikkinchi tomondan, ish beruvchi, kasaba uyushmalari va xukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuchaytirish yo'li bilan ijtimoiy hamkorlik tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirila boshlandi.

Yevropada ijtimoiy muhofaza qilish tizimi Shimoliy Yevropa davlatlarida, ayniqsa Shvesiyada anchagina rivojlangan. Aksincha, AQShda davlat faqat minimal ijtimoiy muhofazani ta'minlaydi, bundan ortig'iga insonning o'zi erishishi lozim, chunki har bir kishi o'z hayoti va kelajagi uchun o'zi javobgardir.

Yevropa mamlakatlarida amal qilayotgan pensiya tizimi o'ziga xos xususiyatga ega. Chunonchi, Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakatlarida pensiya yoshi qilib erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada – erkaklar va ayollar uchun 67 yosh, eng kam – 60 yosh – Fransiya va Italiyada belgilangan.

Pensiya ta'minoti tizimi keksalik bo'yicha asosiy va qo'shimcha pensiya va nafaqa shaklida quriladi. Keksalik bo'yicha asosiy pensiyalar qator Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kabi mamlakatlarda oldingi ish haqi miqdoridan qat'iy nazar barcha kishilar uchun bir xil pul summalari to'lovlari orqali beriladi. Yevropa Ittifoqining qolgan mamlakatlarida asosiy pensiya belgilangan vaqt mobaynidagi o'rtacha ish haqi bilan belgilanadi va pensiyaning eng kam va eng yuqori miqdori chegaralangan bo'lishi mumkin. Qo'shimcha pensiyalar tarmoqlar yoki firmalar bo'yicha to'lanadi. Ular asosiy pensiyaning o'rtacha 10-20 foizini tashkil etadi va u nafaqat pensiyaga chiquvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash, to'ldirish usuli, balki ushbu korxonada kadrlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida pensiya indeksasiyasi kiritilgan. Pensiya fondlarini moliyalashtirishda ishlovchilarning ulushi uning umumiy hajmining o'rtacha 30-40 foizini tashkil etadi. Badallarning aksariyat qismini ish beruvchilar to'laydi. Pensiya badallari miqdori ishlovchilar uchun ish haqi

miqdorining Belgiya, Buyuk Britaniya, Italiyada 6-7 foizidan Niderlandiyada 12 foizgacha tebranib turadi.

Nogironlik bo'yicha pensiya kasallik yoki jarohatlanish oqibatida ish haqidan mahrum bo'lgan kishilarga tatbiq etiladi. Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Daniyada qonunchilik nogironlikni kasallik sifatida qaraydi va ularni kasallik bo'yicha sug'urtaga birlashtiradi. Germaniya, Italiya, Lyuksemburgda nogironlik sug'urtasi keksalik bo'yicha sug'urtaga taalluqlidir.

Belgiya, Italiya, Lyuksemburgda nogironlik bo'yicha nafaqa to'lovlarida agar ishlovchi nogiron bo'lgunga qadar olgan daromadi normal daromadning 1/3 qismini tashkil etmagan vaziyatda ko'zda tutiladi. Germaniyada nogironlikning ikki darajasi e'tiborga olinadi. Birinchisi, kishi mehnat qobiliyatini to'la yo'qotganda, ikkinchisi, o'z kasbi xodimlari o'rtacha ish haqining atigi 1/2 qismini ishlab topa olgan sharoitda.

Yevropaning qator mamlakatlarida nogironlik bo'yicha pensiya olish uchun muayyan sug'urta staji talab etiladi. Masalan, Germaniya, Italiya, Lyuksemburgda u 60 oyga yetadi, Fransiya – 12 oy va 800 soat mehnat faoliyati. Yevropaning boshqa mamlakatlarida sug'urta staji kamroq. Barcha mamlakatlarda (Italiyadan tashqari) nogironlik bo'yicha pensiya qonuniy pensiya yoshiga yetguncha to'lanadi va qarilik bo'yicha pensiya bilan o'rin almashadi.

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy muhofazalash sohasi uchun umumiy bo'lgan tendensiya shundaki, bu davlatlarda ijtimoiy jamg'armalarga badallar korxona yoki mehnatkashlar tomonidan to'lanadi (Finlyandiyada faqat korxonalar to'lasa, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya asosiy og'irlik mehnatkashlar tushadi). Bularda olinadigan yordam miqdoridagi farq sezilarli darajada. Imtiyozlardan foydalanishda umumiy tenglik huquqi Shimoliy Yevropa davlatlari, Niderlandiyada amal qiladi. Belgiya, Germaniya, Fransiya nafaqa va yordam miqdori to'langan badallar salmog'iga qarab belgilansa, AQSh va Kanadada nafaqalar muhtojlik darajasiga qarab to'lanadi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sharoitida davlat kasaba uyushmalari bilan o'zaro munosabatni shu davr uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos shakllarda

amalg oshirishi kerak. Ijtimoiy siyosat sohasida diqqatga molik yo'nalishlardan biri oilalarni qo'llab-quvvatlash va oilaviy nafaqalardir. Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar orasida aholini ijtimoiy muhofazalash Belgiyada yaxshiroq tashkil etilgan. Ayni shu davlat ishchilarning ish haqlariga nisbatan oilaviy nafaqalar salmog'i bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Ikki va uch farzandli oilalar uchun u mos ravishda 13,7% va 25,7%ni tashkil etadi, Germaniyada bu nisbatlar 3,0% va 5,8%ga teng. Belgiyada bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir necha qonuniy aktlar amal qilmoqda, ularning maqsadi "ishlab chiqarish jarayonidagi hissasidan qat'i nazar har bir insonga ijtimoiy muhofaza va minimal kafolatlangan daromadni ta'minlashdir".

Hozirgi vaqtda oilalarni qo'llab-quvvatlash siyosati oilaviy nafaqalarni ko'zda tutadi, birinchi farzand tug'ilgandan boshlab shunday nafaqalar to'lab boriladi. Nafaqalar miqdori ota-onalarning professional maqomi, oiladagi bolalar soni, tug'ilgan farzandning oilada nechanchi ekaniga bog'liq. Bola 18 yoshga to'lguncha, talabalar esa 25 yoshga to'lguncha nafaqa to'lanadi.

Avstriyada ham oilalarga yordam ko'rsatish tizimi ancha rivojlangan. Bu yerda mazkur masala "Onalik akti" va "Ota-onalar ta'ili to'g'risida"gi aktlar bilan tartibga solinadi. Mamlakatda bolalar nafaqalari soni bir talay. Masalan, ota-onalar ta'ili davridagi nafaqa, farzand tug'ilishi bilan bog'liq nafaqa, tug'ishdan keyingi davr uchun nafaqa (farzand 12 yoshga to'lguncha), bolalarni parvarishlash uchun mahalliy nafaqalar. Bu davlatlarda bolali onalar uchun soliq imtiyozlari tizimi mukammal tuzilgan.

Farzand voyaga yetgunga qadar uning parvarishi, ta'lim olishi va boshqalar uchun sarflanadigan xarajatlarni davlat tomonidan qisman kompensasiyalab turish uchun ota-onalarga ajratiladigan bolalar nafaqasi ko'pgina xorijiy davlatlarda oilaviy nafaqalar sirasiga kiritilib, ko'proq ota-onalik nafaqalari deb yuritiladi. Bolalar nafaqasi jahonning barcha davlatlarida ham mavjud emas. Osiyo, ayniqsa, Afrikadagi aksariyat davlatlarda bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalash tizimi yetarlicha shakllanmagani bois bunday nafaqalar berilmaydi.

Rivojlangan g'arb davlatlarida bolalar nafaqasi asosan voyaga yetmagan farzandlari bor oilalar uchun ajratiladi. Bu nafaqa Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvesiya kabi davlatlarda 16 yoshgacha farzandi bo'lgan oilalarga berilsa, Belgiyada farzand 14 yoshga yetgach to'xtatiladi. Aksariyat xorij davlatlarida bolalar nafaqasini faqat muhtoj oilalarga to'lash tamoyili ilgariidan mavjud, ya'ni bolalarga nafaqa belgilashdan oldin oilaning shu nafaqaga qay darajada muhtoj yoki muhtoj emasligi aniqlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada dastavval, oilaning daromadlari tekshiruvdan o'tkaziladi, agar oilaning daromadlari yashash minimumidan yuqori bo'lsa, nafaqa belgilanmaydi. Bundan tashqari, ushbu nafaqa olish uchun murojaat qilgan oila so'nggi ikki yil ichida kamida olti oy mamlakatda istiqomat qilgan bo'lishi kerak.

Fransiyaning bolalarga nafaqa to'lash mexanizmi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bolalar nafaqasi asosan tadbirkorlar va yakka tartibdagi mehnat bilan shug'ullanuvchilarning daromadlaridan to'lanadigan foizlik sug'urta badallari hisobiga tarkib topadigan mablag'lardan to'lanadi. Nafaqa olish uchun oilada kamida ikkita farzand bo'lishi lozim. Agar farzand davolanish, o'qish va boshqa sabablar bilan 3 oy Fransiya tashqarida bo'lsa, nafaqa to'xtatiladi. Nafaqa miqdori: 2 farzand uchun – ish haqining 32,2%, 3 nafari uchun – 27,3%, 5 nafar farzand uchun – 115,0% ga teng. Kanadada nafaqalar soliq imtiyozlari bilan almashtirilgan, ya'ni farzandi bor ota-onalar kamroq soliq to'laydilar.

Shvesiyada ko'p bolali oilalarga maxsus nafaqa to'lanadi. Ammo, farzandlar boshqa-boshqa nikohlardan bo'lmasligi shart. Bundan tashqari, agar ota aliment to'lashga qodir bo'lmasa yoki kam miqdorda to'lasa, qo'shimcha aliment nafaqalari to'lanadi.

3.3. Innovatsion rivojlanish sharoitida aholi turmush darajasini oshirish istiqbollari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda aholisining turmush darajasini oshirish strategiyasini amalga oshirish muhim hayotiy

ahamiyatga egadir. Ushbu keng qamrovli strategiya iqtisodiy o'sish xususiyatlarini o'zgartirish, aholi bandligini, jumladan, oziq-ovqat, mahsulotlarni qayta ishlash sanoati, yengil sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, kichik korxonalarda mashinasozlik sanoati uchun ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohasini rivojlantirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, ayni paytda ijtimoiy hamda iqtisodiy infratuzilmaga, jumladan qishloq joylarga davlat investisiyalarini yo'naltirishni ko'paytirish hisobidan qayta taqsimlash siyosatini mustahkamlash imkonini beradigan qator strategik choralarni nazarda tutadi.

Bu borada respublika Prezidenti quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan: "...ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirishi imkonini beradi"⁵.

Ayni paytda respublika xukumati makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan izchil siyosat yuritmoqda, inflyasiya darajasi esa 7%da saqlanib turibdi, 2010 yildan buyon ortiqcha byudjet mablaglari tejab qolinmoqda va 2012 yilda ushbu mablag'lar miqdori 0,5 %ni tashkil etdi.

Biroq, daromadlar miqdori o'sishining o'rtacha ko'rsatkichi mamlakatdagi turmush darajasini aks ettira olmaydi. Birinchidan, bu ko'rsatkich daromadlar o'rtasidagi tengsizlikni va daromadlarning o'sish sur'atidagi tafovutlarini ifoda etmaydi. Ikkinchidan, ma'lumki daromad o'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda turmush darajasining nisbatan pastroq ko'rsatkichi hisoblanadi va ushbu mamlakatlarda daromad ko'pincha norasmiy xo'jaliklarda shakllanadi, ya'ni deklarasiya qilinmaydi.

Garchi so'nggi yillarda YaIM ning yuqori darajada o'sayotganiga qaramay, Olmaliq shahrida aholi sonining ko'payishi davom etmoqda. Shu sababli YaIM ning uzluksiz o'sishi ko'p sonli aholiga nisbatan unchalik yuqori emas va buning natijasida YaIM ning aholi jon boshiga o'sishi real YaIM ning o'sish sur'atiga qaraganda ancha past. Aholi sonining ko'payishi 1980 yillarda sekinlashgan bo'lsada,

⁵ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 49 b.

ayni paytda ularning o'sish sur'ati yiliga taxminan 1,2 %ni tashkil etadi va BMT aholishunoslik bo'limi prognozlariga ko'ra, 2006-2012 yillarda aholi soni yana 6%ga ko'payadi. Bolalar sonining ko'payib borayotgani ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari byudjetiga, shuningdek, yetkazib berish vositalari va ijtimoiy infratuzilmaga ma'lum darajada ta'sirini o'tkazmoqda, ijtimoiy infratuzilmaning asosiy ijtimoiy xizmatlarining sifat standartlarini bir maromda saqlashni yanada qiyinlashtirmoqda.

Turmush darajasini oshirishda inson rivojlanishi va davlat siyosati uchun ushbu holatning oqibatlari quyidagilar hisoblanadi:

Birinchidan, bolalar ota-onasi qaramog'ida bo'ladi va bu oila byudjetidan qo'shimcha xarajatlar sarflanishiga olib keladi. Yuqorida qayd etilganidek, ayniqsa, ko'p bolali oilalar davlat tomonidan nafaqalar, ta'lim, tibbiy xizmatlardan foydalanish ko'rinishidagi yordamga umid qiladi.

Ikkinchidan, mehnat bozoriga kelayotgan yoshlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Oilada turmush darajasini saqlash va munosib hayot kechirishni kafolatlash, soni ortib borayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi aholini unumli ish hamda ularning daromad olishini ta'minlash maqsadida yuqori iqtisodiy o'sish darajasini ta'minlashga qisqa va o'rta muddatli istiqbolda yanada kuchliroq e'tibor qaratish darkor.

Uchinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning mehnat bozorida raqobatlashish imkoniyatini oshirish va malakali ishchi kuchiga nisbatan ortib borayotgan ehtiyojni qondirish uchun ularning ta'lim olishi hamda sog'lig'ini saqlashga mablag' sarflash zarur.

Mamlakatimiz Prezidentining ko'plab dasturiy ma'ruzalarida keltirilgan O'zbekiston aholisi farovonligini oshirish strategiyasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy sektor rivojlanishini rag'batlantirish (soliq yukini kamaytirish, soliq solishni maqbullashtirish, mulkchilik huquqini himoya qilishni ta'minlash va iqtisodiyotga davlatning aralashuvini cheklash maqsadida institusional salohiyatni mustahkamlash), qishloq xo'jaligiga davlat investisiyalarini va xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini, bank sektorini yanada isloh qilish orqali kredit liniyalardan foydalanishni

kengaytirish hamda mikromoliyalashni rivojlantirish evazidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash ko'zda tutilgan. Mazkur strategiyada, shuningdek mamlakatda davlat xarajatlarini sog'liqni saqlash va ta'lim uchun taqsimlash orqali inson kapitalini yanada rivojlantirish, ushbu sektorlarda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ko'p bolali oilalar, qariyalar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Respublikada aholi turmush darajasini oshirish borasida inson salohiyatini rivojlantirish indeksini yanada oshirish siyosatini olib borishi kerak. Uning uchun quyidagi imkoniyat va tanlashlarni kengaytirish zarur:

1. Mamlakatda savdo balansini mustahkamlash borasida eksportga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirish. Eksport ulushi, nafaqat jahonda xom ashyo uchun qulay narx-navo, balki eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega sanoat mahsulotlari ulushining ko'payishi natijasida ham o'smoqda. Bu esa kelajakda hozirgi iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror saqlab qolgan holda eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega sanoat tovarlari ulushini ko'paytirishni va o'z navbatida, xususiyl sektorini rivojlantirishni taqozo etadi.

2. Xukumat xususiyl biznesni rivojlantirishga ko'maklashish uchun qator choralarni ko'rish. Biznes yuritishda rasmiyatchilik to'siqlari bartaraf etish, davlat organlarining xususiyl korxonalar faoliyatiga aralashuvi ham sezilarli ravishda kamaytirish.

3. Soliq yukini kamaytirish va bojxona to'lovlari stavkalarini muvofiqlashtirishga qaratilgan siyosatni ham davom ettirish lozim. Bu o'z navbatida, mahalliy mahsulotlarning nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Soliq yukining kamaytirilishi xususiyl investisiyalarni ko'paytiradi va iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishining barqaror manbaini yaratadi.

Xususiyl sektorga investisiya sarflashni rag'batlantirishga yo'naltirilgan siyosat ham izchil davom ettirish zarur.

4. Jamg'arilgan mablag'larni jalb etish va xususiyl investisiyalarni rag'batlantirish uchun moliya sektorini, ayniqsa, tijorat banklarini isloh qilishni davom

ettirish zarur. Ayni paytda bank tizimiga bo'lgan ishonch darajasi pastligicha qolmoqda va buni tijorat banklari o'z vakolati doirasiga kirmaydigan vazifalarni, soliq yig'ish, pul depozitlarini nazorat qilish kabi vazifalarni bajarayotgani bilan izoxdash mumkin. Bu fuqarolarning bank tizimiga ishonishiga va pul jamg'arishni rag'batlantirish, shuningdek, kapitalning ko'payishiga yordam bermaydi. Tijorat banklari ushbu vakolatlarni o'z zimmasidan asta-sekin olib tashlashi lozim.

5. Mikromoliyalash institutlari va kredit tashkilotlarini yanada rivojlantirish orqali mikromoliyalashdan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirish zarur. Buning uchun 2006 yilda mikrokreditlash va mikromoliyalash tashkilotlari to'g'risidagi qonunlar qabul qilingach, huquqiy asos yaratildi.

6. Xukumat xususiy investisiyalarni yanada kengaytirish va xususiy sektorni rivojlantirish maqsadida ijtimoiy hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini yuksaltirishga, shu jumladan, meliorasiya ishlariga davlat investisiyalarini sarflashni ko'paytirish zarur. Ya'ni ushbu investisiyalardan xususiy investisiyalarni rag'batlantirish uchun foydalanilishi maqsadga muvofiqsir.

7. Xususiy sektorni rivojlantirish va investisiyalar sarflashni Kengaytirish mulkdorlarning shaxsiy mol-mulki va xuquqlarini himoya Qilish maqsadida institusional o'zgarishlarni talab qiladi. Qonunlar va farmoyishlarga amal qiladigan har qanday mulkdor davlat uning mulkiga nafaqat tajovuz qilishi, balki boshqaning ham tajovuz qilishiga yo'l qo'ymasligiga ishonchi komil bo'lishi kerak.

8. «Iqtisodiy bilim»ni shakllantirish uchun inson kapitaliga investisiyalarni ko'paytirish lozim. Uzbekiston aholisi savodxonligi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan qolishmaydi. Biroq ularning bilim saviyasi har doim ham mamlakatda bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish uchun davr talabiga javob bermaydi. O'z iqtisodiyotini «ishlab chiqarish va bilimni sotish»ga o'zgartirish uchun ushbu bilimni ishga solish

qobiliyatiga ega yuqori malakali xodimlar kerak bo'ladi. Bu - mehnatga layoqatli oliy, avvalambor, muhandis - texnik ma'lumotlarga ega aholi sonini ko'paytirishni talab etadi. Bu borada bilim shu darajada bo'lishi kerakki, mutaxassislar yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, bugun noma'lum bo'lgan istiqbolli texnologiyalarni oldindan bilishi hamda modellashtirishi lozim. Shuningdsk, ilmiy ishlab chiqarish. tajriba va loyiha faoliyatini integrasiyalashtirish talab etiladi.

9. Innovasiyalarni qo'llab-quvvatlash «bilimga asoslangan iqtisodiyot»ni rivojlantirishni asoslaydigan omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasida katta va kichik biznesga novatorlik g'oyalarini jalb qilishda xukumat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan dasturlar samara berishini yaqqol isbotlangan. Novatorlik va bilimga asoslangan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan turli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur institutlar tashkil etish hukumat ushbu sohada yuritayotgan siyosat yuksak samaralar berishiga xizmat qilishi lozim.

Lekin bularning tizimli ijtimoiy monitoring o'tkazish uchun har bir viloyat, shahar va tumanda dasturlarni amalga oshirilganligini ko'rsatuvchi indikatorlar yig'indisi va integrasiyalashgan ko'rsatkich kerak bo'ladi.

Ijtimoiy farovonlikni integral indeksini hisoblash jarayonida joylashgan xududlarning spesifikasi, demografik holat, tabiiy resurslarning mavjudligi. iqtisodiy potensial, ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanpshi va ularning aholi turmush darajasiga ta'sirini baholashda uch darajali tizim ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

1. Mineral xom-ashyo, suv va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikdagi farqlarni tavsiflovchi xududdagi resurs potentsiali ko'rsatkichlari.
2. Iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari.
3. Ijtimoiy demografik ko'rsatkichlar.

Taklif etilayotgan indikatorlar tizimi va bazaviy ko'rsatkichlar kompleksli yondoshuvlar asosida (ijtimoiy siyosatni hamma yo'nalishlarini o'z ichiga oladi), ilmiy

asoslanganlik, tizimlilik (indikatorlar bir-biri bilan bog'liq) asosida ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga taqqoslanish va erishishlik prinsiplarining kuchaytirilishi shahar, tuman va mahalla darajasida ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilishni talab etadi. Bunday yo'l holatga to'g'ri «tashxis» qo'yishini va rivojlanish tendensiyasini o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi. Obyektiv analiz va aholi turmush darajasini oshirish monitoringi shu xudud uchun muammolarni va ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanish istiqbol yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi.

Ijtimoiy farovonlik indeksining ishlab chiqarilishi va hamma hududlarda tizimli ijtimoiy monitoringni o'tkazilishi quyidagilarga imkon beradi:

- xukumat tomonidan mintaqalar darajasida qabul qilingan qarorlar natijasini va mavjud resurslardan foydalanish samadorligini baholash;
- samarasiz alohida mintaqalarning sabablarini aniqlash va ular asosida xududiy rivojlanishni tartibga solishda asosiy ustivorliklarni aniqlash. Samarasiz xududlarni rivojlantirish tizimli yondoshuvini viloyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish Kompleksli dasturi orqali ta'minlashi mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy monitoringni o'tkazishni tashkiliy mexanizmining samaradorligi infratuzilmaning rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Uning uchun quyidagilar taklif etiladi:

- ijtimoiy monitoring markazini tashkil etish, aholi turmush darajasi va sifati ma'lumotlarini yig'adi, tahlil qiladi va istiqbol (prognoz) ni belgilaydi, shuningdek, mamlakatdagi hamma xududlar uchun ijtimoiy farovonlik integral indeksini hisob-kitob qiladi.
- fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish mahalliy organlarini moddiy texnika bazasini mustahkamlash va shahar bo'yicha har bir mahalla bilan ijtimoiy monitoring markazining hududiy bo'limini bog'lab turuvchi yagona informasion aloqani yaratish.

Kam ta'minlanganlik kompleksli muammo hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish kambag'allikni qisqartirishni zaruriyati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aholi

turmush darajasini oshirish strategiyasi asosiy yo'nalishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga va kam ta'minlanganlikka yo'naltirilgan iqtisodiy-siyosiy chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratish lozim.

Shunday qilib, respublika aholi turmush darajasini oshirish strategiyasining asosiy maqsadi – dinamik va keng hajmli iqtisodiy o'sish asosida, jahon bozorida uning raqobatbardoshligini ta'minlovchi modernizasiyalashgan va diversifikasiyalashgan iqtisodiyotni shakllantirish, mamlakatning barcha xududlarini kompleks rivojlantirish, daromadlarni adolatli taqsimlash, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda xizmatlar sifatini oshirish asosida aholi turmush darajasini oshirishdir.

III-BOB бўйича хулоса

1. Ta'kidlash lozimki, bozor infratuzilmasi aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Agar biror hududda bunday infratuzilma rivojlanmagan bo'lsa, tadbirkorlik ham rivojlanmaydi, aholining turmush darajasi ham oshmaydi. Demak, har bir hududda bozor infratuzilmasini rivojlantirish lozim. Shuning uchun, nazarimizda, har bir hududda bozor infratuzilmasi rivojlantirish lozim.

Buning uchun quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishlab chiqarish infratuzilmasini ustuvor rivojlantirishni amalga oshirish. Bunda asosiy e'tibor meliorasiya, gidrotexnika, elektr energiya inshootlari va tarmoqlarini rivojlantirishga, yerlarni sug'orishga, sanoatning qayta ishlovchi korxonalarini qurish va texnika bilan qayta uskunalashga qaratilishi, muhandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari: vodoprovodlar, kanalizasiya tizimi va inshootlari, gaz va elektr ta'minoti tarmoqlari, yo'llar, telekommunikasiya tizimlari ustuvor bo'lishi lozim.

B. Bozor infratuzilmasini tashkil etish va uni jadal yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti talablariga moslashtirish maqsadida shaharda

bozor qayta o'zgartirishlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga, uni rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirishga da'vat etilgan "Tadbirkorlik departamentlari" faoliyati takomillashtirilishi lozim.

2. Ijtimoiy farovonlikni integral indeksini hisoblash jarayonida joylashgan xududlarning spesifikasi, demografik holat, tabiiy resurslarning mavjudligi. iqtisodiy potensial, ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanishi va ularning aholi turmush darajasiga ta'sirini baholashda uch darajali tizim ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

A. Mineral xom-ashyo, suv va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlikdagi farqlarni tavsiflovchi xududdagi resurs potentsiali ko'rsatkichlari.

B. Iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari.

B. Ijtimoiy demografik ko'rsatkichlar.

3. respublika aholi turmush darajasini oshirish strategiyasining asosiy maqsadi – dinamik va keng hajmli iqtisodiy o'sish asosida, jahon bozorida uning raqobatbardoshligini ta'minlovchi modernizasiyalashgan va diversifikasiyalashgan iqtisodiyotni shakllantirish, mamlakatning barcha xududlarini kompleks rivojlantirish, daromadlarni adolatli taqsimlash, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda xizmatlar sifatini oshirish asosida aholi turmush darajasini oshirishdir.

XULOSA

1. Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, "aholi daromadlari" tushunchasining ta'rif, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil davlat daromadlar siyosatini o'tkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

- ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi.

- uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasini, qimmatli qog'ozlarni, shaxsiy mulkni sotib olishga xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar.

3. Innovsion rivojlanish sharoitida O'zbekiston aholisining daromadlari darajasini oshirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- aholining daromadlar darajasi zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi;

- aholining turmush darajasini belgilovchi omil aholi daromadlari hisoblanadi. Mamlakat aholisi daromadlari nominal, real va real foydalaniladigan pirovard daromadlari shakllanishining sxemalari ishlab chiqilgan;

– jahon amaliyoti ko'rsatishicha, natural shakldagi daromadlar rejali iqtisodiy tizimga xos bo'lsa, pul shaklidagi daromadlar bozor tizimini tavsiflaydi. Natural daromadlarning mavjudligi bozor munosabatlarining rivojlanmaganligini ko'rsatadi;

– daromadlarning turkumlanish xususiyatlarini aniqlashda milliy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish haqining turlicha darajada ekanligiga e'tibor berish kerak. Olib borilgan tahlillar iqtisodiy islohotlar jarayoni va sur'ati turli tarmoqlarda har xil kechganligi tufayli ish haqi miqdorining farqlanishiga olib keldi;

– ishda olib borilgan tahlillar respublikada aholining pullik daromadlarining ulushi ortayotganligi, aksincha natural ko'rinishdagi daromadlar ulushining kamayotganligini ko'rsatdi;

– respublika aholisining pul xarajatlari tarkibini tahlil qilish iste'molga va majburiy to'lovlarning xarajatlarning kamayganligini, banklarga qo'yilgan pullar ulushining ortganligini ko'rsatdi;

– respublikadagi mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farqlangani tufayli aholi daromadlari darajasi ham unga mos ravishda turlicha bo'lgan;

– O'zbekistonda aholi daromadlarining farqlanishiga ikkita omil ta'sir ko'rsatishi, birinchidan, milliy iqtisodiyotda agrar sohaning muhim rol o'ynashi, ikkinchidan, aholi tarkibida ko'p bolali oilalarning mavjudligi aniqlandi.

Dissertatsiya ishida yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi **tavsiyalar** berildi:

- mamalakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash; mehnat qilish sohalarini kengaytirish; tadbirkorlikni, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini va o'zini-o'zi band etish shakllarini kengaytirish,; jamoa shaklidagi ishlarni tashkil etish, o'rtacha daromadlarning doimiy ko'payishi, kambag'allikni kamaytirish;

- aholini barcha tabaqalari uchun munosib turmush darajasiga erishishi uchun barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, shunigdek, aholining turli qatlamlarini ish bilan ta'minlash, yer, kreditlar va boshqa ishlab chiqarish

resuslaridan foydalanish orqali barqaror o'sish sur'ati imkoniyatlaridan foydalanishini kafolatlash;

- O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish borasida inson salohiyatini rivojlantirish indeksini yanada oshirish siyosati olib borish;

- amaldagi qonun hujjatlariga hududlar bo'yicha ish bilan band bo'lmagan va ishga joylashtirishga muhtoj aholi toifalarini aniq belgilaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- ijtimoiy farovonlikning integral indeksini hisoblash jarayonida har bir hududning spesifikasi, demografik holati, ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanishi va ularning aholi turmush darajasiga ta'sirini baholash ko'rsatkichlaridan foydalanish;

- soliq yukini kamaytirish hisobiga soliq to'lovchilar ixtiyorida qoldiriladigan mablag'lardan unumli foydalanish, aholi daromadi va bandlik darajasini oshirish orqali xarid qobiliyati tez o'sishi ta'minlanishiga erishish.

O'ylaymizki, yuqorida berilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni amaliyotga tadbqiq etish O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faol aholining ish bilan bandligi va insonlar farovonligini oshirish muammolarini hal qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - T.: "Iqtisodiyot huquq dunyosi", 2010.
3. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonuniga sharhlar, -T.: "Sharq", 2000. -375 b.
4. "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007 yil 5 apreldagi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). –T.: Adolat, 1998.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 20-son, 215-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli "Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomi.. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.01.2010 yil.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

10. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. –T.: «O‘zbekiston», 2009. – 54 b.

11. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. 16-Tom – T.: “O‘zbekiston”, 2008. – 386 b.

12. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar, №19 (4934).

13. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” // Xalq so‘zi. – №16(5183), – 22 yanvar 2011 y.

14. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O‘zbekiston, 2010.

15. I.A.Karimov. Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O‘zbekiston, 2011.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2013 yil 19 yanvar, №13 (5687).

III. Kitoblar va monografiyalar

17. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti. -T.: “Mehnat” – 2009. -511 b.

18. Abdurahmonov Q.X., V.Imomov. O‘zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish –T.: “Akademiya”, 2008.

19. Abduraxmonov Q.X., Murtazoyev B.Ch. Mehnat bozori (o'quv qo'llanma). – Toshkent: 1999.
20. Volgin N.A. Ekonomika truda: rinochnie i sotsialnie aspekti. Uchebno-metodicheskiy kompleks dlya podgotovki magistrrov. –M.: Izd-vo RAGS, 2010. – 368 s.
21. Genkin B. M. «Ekonomika i sotsiologiya truda»; M.: Norma, 2007. - 448s.
22. Kibanov A.Ya. i dr. Motivatsiya i stimulirovaniye trudovoy deyatel'nosti. ucheb'nik. M.: INFRA-M, 2009.
23. Kotlyar, A.E. Trudovoy potentsial. Naseleniye i trudovie resursi. Spravochnik./ A.E. Kotlyar.- M.: Nauka.- 2007.- 417 s.
24. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T: “Iqtisodiyot moliya”, 2009, 529-b.
25. Adamchuk V.V. Ekonomika i sotsiologiya truda / V.V. Adamchuk, O.V.Romashov, M.Ye.Sorokina- M: YUNITI, 2001.
26. Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. Izbr proizvedeniya. – M.: Ekonomika, 1993.
27. Samuelson P. Ekonomika .– M.: NPO Algon, 1992.
28. Erenberg. R.D., Smit R.S. Sovremennaya yekonomika truda. Teoriya i gosudarstvennaya politika: Per. s angl. - M: Izd-vo MGU, 1996.
29. Makkonnell K., Bryu S. Yekonomiks: Prinspi, problemi i politika. T. 2. – M.: Progress, 1992.
30. Marshall A. Prinspi politicheskoy ekonomii. – M.: Progress, 1983.
31. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogastva narodov. -M.: Nauka, 1993.

IV. Jurnallardagi maqolalarga havola

32. Jurayev T. Mehnat bozoridagi muvozanatlik va bandlikning o'ziga xos xususiyatlari // Bozor, pul va kredit. –T.:2006. №10. -61-62 b.

33. Suxov S. Rinok truda i problemi trudoustroystva / C. Cuxov, A. Rya-xovskiy, N. Galetova [i dr.] // Visshee obrazovaniye v Rossii. – 2006. – № 4. – C. 10-19.

34. Xolmuhammedov M.M., Kurbonov S.K. Regulirovaniye rinka truda molodeji v Samarkandskoy oblasti. Mejdunarodnogo nauchnogo byulletenya “Perspective of Innovations, Economics and Business”, Volume 1, July 2009, Regionalniy fokus: Sentralnaya Aziya, str. 90-91.

35. Qurbonov S.Q. Qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish – qishloq joylarida aholini ish bilan bandligini ta’minlashning muhim omili. Birja Ekspert. – T. №5, 2011.

V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlariga havola

36. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. - T.: TDIU. 2008. – 156 b.

37. Xudoyberdiyev Z.Ya. Podgotovka rabochix na proizvodstve v usloviyax rinochnoy sistemi xozyaystvovaniya (na primere g. Tashkenta): dis. kand. ekon. nauk : 08.00.10. - Tashkent, 1995. – 178 s.

VII. Xorijiy adabiyotlar

38. Becker, Gary S. Human Capital. — N.Y.: Columbia University Press, 1964.

39. Horie N. (2004), “The role of universities for youth labour market in Russia”, Center for Far Eastern studies, Toyama university, Toyama.

40. Shultz T. Human Capital in the International Encyclopedia of the Social Sciences. — N.Y., 1968, vol. 6.

VIII. Statistik materiallar

41. Inson taraqqiyoti to‘g‘risida hisobot. –T.: 2008. -125 b.

42. O'zbekistan v sifrax. 2010. -Tashkent, 2012. -199 s.
43. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
44. Samarqand viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish bosh boshqarmasi ma'lumotlari.
45. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti.

ILOVALAR